**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI MUQIMIY NOMIDAGI QO’QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika kafedrasi o’qituvchisi
M.Matmusayevaning 3 bosqich
Maktabgacha ta’lim va bolalar
sporti ta’lim yo’nalishi talabalari uchun

# “PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA”

***fanidan***

# MA’RUZA MATNLARI

**(o'qitish texnologiyasi, texnologik xarita va ilovalar)**

**Qo’qon – 2010 yil**

| 1 - Mavzu | PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FANINING MAZMUN-MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI |
|---|---|

## 1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 30 - 60 nafar. |
|---|---|
| O'quv mashg'lotining shakli | Vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1.Diagnostika qilish haqida umumiy tushuncha<br>2.Pedagogik diagnostika fanining maqsadi va vazifalari<br>3.Bilim olish, bilimlilik va tarbiyalaganllik diagnostikasi |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Diagnostika qilish haqida umumiy tushuncha.Pedagogik diagnostika fanining maqsadi va vazifalari bilim olish, bilimlilik va tarbiyalaganllik diagnostikasini o'rganish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyatining natijalari** |
| - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini, ko'rsatish;<br>- Pedagogik diagnostika qilish haqida umumiy tushuncha berish;<br>- Pedagogik diagnostika fanining maqsadi va vazifalari mohiyatini ochib berish<br>Pedagogik diagnostika fanining bilim olish, bilimlilik va tarbiyalan ganlik diagnostikasini o'rganish | - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini aniqlash;<br><br>- Pedagogik diagnostika fanining diagnostika qilish haqida umumiy tushunchalarini tushunadilar<br><br>- Pedagogik diagnostika fanining maqsadi va vazifalarini mohiyatini ochib beradilar va tanishadilar;<br>-<br>- Pedagogik diagnostika fanining bilim olish, bilimlilik va tarbiyalaganlik diagnostikasini o'rganadilar |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster, bumerang |
| **O'qitish vositalari** | Proyektor, tarqatma materiallar |
| **O'qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda ishlash |
| **O'qitish sharoitlari** | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya |

## 1.2 Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Bosqichlar<br>Vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. Kirish (5 min.)** | 1.1. Mavzu maqsad va rejalashtirilgan o’quv natijalarini e’lon qiladi.<br>1.2. Rejani ekranga chiqaradi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. E’tibor beradilar. |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)** | 2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi.<br>2.2. O’quv faoliyatini baholash mezonlarini ma’lum qiladi. | 2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. |
| **3-bosqich. Asosiy (55 min.)** | 3.1. Quyidagi savol bilan murojat qiladi Pedagogik diagnostika fanining maqsadi va vazifalari xaqida gapiring?<br>3.2.Pedagogik diagnostika fanining diagnostika qilish haqida umumiy tushuncha berish;(1.1 ilova)<br>3.3. Pedagogik diagnostika fanining maqsadi va vazifalarini mohiyarini ochib berish(1.2.(1,2)ilova)<br>3.4.Pedagogik diagnostika fanining bilim olish, bilimlilik va tarbiyala ganlik diagnostikasini o’rganish(1.3 ilova) | 3.1. Gapiradilar.<br>3.2. Yozib oladilar.<br>3.3. Tushunchlarni mohiyatini anglaydilar.<br>3.4. O’rganadilar |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min.)** | 4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O’quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi.<br>4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi. | 4.1. Eshitadilar.<br>4.2. Topshriqlarni yozib oladilar. |

1.1.


Diagnostika qilish haqida umumiy tushuncha
O'quvchini o'zlashtirishi
O'qishdagi qiyinchiliklarini o'rganish
O'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganish
Diagnostika natijalari ta'lim-tarbiya jarayononini to'g'ri rejalashtirish

1.2.(1)



Pedagogika fanining maqsadi
Pedagog o’z ishi, faoliyati natijalarini tashkil qilishi
Oquvchilarda qiyinchilik tug’diradigan sabablarini o’z vaqtida aniqlash
Qiyinchiliklarni o’quvchilarga individual yondashish jarayonida bartaraf qila olish

1.2.(2)


Joriy
etish
Maqsadni
ro'yobga
chiqarish yo'l
yo'riqlari
Pedagogika
fanining
vazifasi
Metodik
mexanizmlarni
ishlab chiqish

**1.3.**



**O'quvchiga individual ta'lim berishni ta'minlaydi**

**Davlat va jamiyatning ta'limga qo'ygan talablaridan kelib chiqib, o'quvchi bilimini to'g'ri , adolatli baholashni ta'minlaydi**

**Ishlab chiqilgan ta'lim mezon kriteriyalari orqali o'quvchining sinfdan sinfga o'tishda, mutahassislikda qabul qilinishida minimal talablarga javob berish**

# 1-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FANINING MAZMUN-MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI

## REJA:

1. **Diagnostika qilish haqida umumiy tushuncha**
2. **Pedagogik diagnostika fanining maqsadi va vazifalari**
3. **Bilim olish, bilimlilik va tarbiyalaganllik diagnostikasi**

Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar o'zining pedagogik faoliyatida pedagogik diagnostika bilan shug'ullanishlari lozimligi bugungi kun talablaridan biridir. Xar kanday faoliyat zamirida xam amalga oshirilgan ishlarning pirovard maksadi, vazifalari va kutilgan natijalari buladi. Faoliyat natijalarini sarxisob kilish, amaliy xulosalar yasash - bush yoki muvaffakiyatli urinlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi boskichlarida uni xisobga olish diagnostika deyiladi. Pedagogik diagnostika o'quvchining o'zlashtirishi, o'qishdagi qiyinchiliklarini, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir. Diagnostika natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan hatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib boorish imkonini beradi.

Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining bahtu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, 'zini ayamaydi. Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf - odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, xis etadi.

O'zbek oilasi mustabidlik zamonida ham o'zining tarixan shakllangan qiyofasini yo'qotmadi. Ulug' adibimiz Abdulla Qodiruy qahramonlaridan birining: "Bu xonadondan hech kim norizo bo'lib ketgan emas", deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam. Bu yo'q joydan paydo bo'lgan gap emas. Ota - onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqollaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab

beradi: yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasbli - hunarli qilish, boshini ikki, uyli - joyli qilish.

Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat - e'tibori markazita o'tmoqda, tarbiya sohasi isloxoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallash uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir.

Bunday boylikning ahamiyatini anglash uchun chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general - gubernatori M. Skobelev:

"Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi", deb aytgan gapini eslashning o'zi kifoya qiladi. Bunday yovuz qarashlarga qo'shimcha izoh berishga hojat yo'q, deb o'ylayman. Lekin ulardan kerakli xulosa - saboq chiqarish uchun bugun ham kech emas. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. ar qanday faoliyat zamirida ham amalga oshirilgan ishglarni pirovard maqsadi vazifalari va

kutilgan natijalarini sarhisob qilish, amaliy, xulosalar yasash - bo'sh yoki muvaffaqiyatli 'rinlarni belgilab olish faoliyatni keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi

Fanning asosiy maqsadi talabalar psixologiyasining turli sohalaridan psixologiya va pedagogikaga oid bilimlar berish, ayniqsa shu fanlarning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga o'rgatishdir.

Shuning uchun mazkur kurs asosan amaliy xususiyatga ega, lekin nazariya bilan uyg'unlashgandir.

1) Ilmiy asoslangan diagnostik metodlarsiz bolalarning maktabga tayyorligini bilish mumkin emas:
2) Rivojlantiruvchi ta'lim samaradorliginin kuzatib bo'lmaydi:
3) Turli metodlarning nisbiy maxsuldorligini, o'qitishning shakl va vositalarini baholash:

   a) diagnostik metodlarsiz o'quvchilarning turli yosh davirlaridagi intellektual rivojlanganlik darajasini belgilash o'ta mashaqqat:

   b) o'quvchilarga individual yondashish uchun zarur bo'lgan ularning individual hususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni to'play olmaymiz.

***Fanning maqsadi va vazifalari.*** Pedagoglarning kasbiy mahoratining asosiy komponentlaridan biri o'quv tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishidir. Buning uchun pedagog texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallaganli yetarli emas. Pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondoshish jarayonoda bartaraf qila olishi lozim. Shu o'quv tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish vosita va yo'llaridan biri ilmiy jihatdan asoslangan psihologik-pedagogik diagnostikadir. Bugungi kunda psixologik pedagagik diagnostikaning o'rni, axamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi. Individual yondashish, o'quvchi va talabalarning individual xususiyatlarini o'rganish shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlarida aks ettirilgan. Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha

bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi.

Pedagogika diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni taxlil kilishda katta axamiyatga ega bulib, ilgor ta'lim muassasalarida bu ish uslubi muvaffakiyatli tarzda amalga oshirilmokda, yutuklar mustaxkamlanib, yul kuyilgan kamchilik va nuksonlarni taxlil kilish asosida bosh strategik yunalishlar belgilab olinmokda va yukori darajadagi pirovard natijalar kulga kiritilmokda. Savol tugilmokda:

- bola kobiliyati, imkoniyati, bilimi, egallagan kunikmalarining ulchovi bormi?
- bolaning bilish va kunikmalariga belgilashga ukituvchi aralashgani ma'kulmi yoki uziga uzi baxo bergani avzalrokmi?

Manashu savollarga eng makbul asoslarda javob berish pedagogik diagnostikaning predmetidir. Manashu maksadni ruyobga chikarish yul-yuriklari, metodik mexanizmlarini ishlab chikish, joriy etish muxim vazifadir. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogik faoliyati tarixi bilan deyarli tengdosh. Boshka kilib aytganda, pedagogik jarayon ming yillardan beri mavjud bulsa, bu faoliyatning meorlari va natijalarini belgilash xam shunchalik kadimiydir. Demokchimizki, o'quvchi bilimiga baxo kuyish, uni sinov va imtixon kilish, pirovard ish natijalarini belgilab olish boshlangan erda pedagogik diagnostika xam mavjud. Fakat fark shundaki, ibtidoiy va urta asr pedagogikasida bola bilimi va ixtidorini diagnostik taxlil kilishning ilmiy asosi yuk edi. Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda taxlil etish va yulga kuyish XX asr boshlarida amalga oshirilgan. Shu boisdan, bu pedagogik jarayonning nomlanishi xam turlicha bulgan.

Ayrimlar pedagogik diagnostikani taklif etilagan bilimlarni uzlashtirish asosi deyishadi. Boshkalar diagnostikani ukitishni jadallashtiruvchi axborotdir deb xisoblaydilar. Yana ayrimlar esa diagnostika egallangan bilim sifatini nazorat etishdir, degan fikirni ilgari suradilar. Tanikli pedagogik olim Macherman pedagogik diagnostikani «O'quvchi uzlashtirishi bilan, ukuv materialini tugri tanlash, maksadni tugri yunaltirish mezonidir» deb xisoblaydi. Aslida pedagogik diagnostika ukuv materialini bilish jarayonining asosini tashkil etib, makbul

pedagogik xulosaga kelishga zamin yaratadi. Shu boisdan xam, pedagogik diagnostika:

birinchidan, o’quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi;

ikkinchidan, davlat va jamiyatning ta'limga kuygan talablaridan kelib chikib, o’quvchi bilimini tugri, adolatli baxolashni ta'minlaydi;

uchinchidan, ishlab chikilgan ta'limiy mezon, kriteriyalari orkali o’quvchining sinfdan sinfga utishda, mutaxasislikga kabul kilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi.

Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni tugri taxlil etiladi va uning samaradorligi tugri baxolanadi. Boshkacha kilib aytganda, pedagogik diagnostika orkali ta'lim ob'ekti, ta'limiy tushunchalar qaydarajada uzlashtirilganligi taxlil etiladi, butun ukuv kursini, ukuv dasturlarinrini uzlashtirish darajasi baxolanadi. Pedagogik diagnostka muxim axamiyatga ega. U ukuv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat kiladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilansamaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yul kuyilgan kamchilik va nuxsonlarni bartaraf etishga yul ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir kiladi. Pedagogik diagnostika tarixiga nazar tashlasak utgan asrlarda u fakat o’quvchi bilimini baxolash orkali amalga oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864 yilda AKSh olimlari D.Fisher va R.Resslar asos solganlar, 1908 yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orkali o’quvchi bilimini sinash tizimini tadbik etgan. Egallangan malakani aniklashga karatilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatining ayrim jihatlari:

a) taqqoslash;

b) pedagogik taxlil;

v) avvaldan ayta bilish (prognoz);

g) interpretatsiya;

d) pedagogik diagnostika natijalarini o’quvchilarga etkazib berish;

e) amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o’quvchilarga etkazish;

j) pedagogik diagnostika matodlarini tugri belgilashdan iborat bulgan.

Pedagogik diagnostikaning eng muxim kriteriylari esa:

- xakoniylik (ob'ektivnost);
- ishonchlilik (nadejnost);
- puxtalik (validnost) ka asoslanadi.

Diagnostik taxlillar kachon ob'ektiv buladi?

*Agar: sinov natijalari turli tekshiruvlarda bir xil natijalar kursatilib, kursatkichlar uzaro bir biriga yakin bulsa;

*Agar: sinov mezonlari, ulchovlari birligi xamda uning natijalari sinovni amalga oshiruvchi, aniklovchining shaxsi xislati va munosabatlariga boglik bulmasa;

*Agar: sinov bir xil talab, bir xil munosabat va psixologik kayfiyatda amalga oshirilsa, xakikiy axvolni aniklashda ob'ektiv natijalar olinishi mumkin.

Modomiki maksad xakikiy ta'limiy axvolni aniklash ekan, unga tugri, xalollik, xakoniylik bilan yondashish zarur. Aks xolda, diagnostikadan kuzlangan natijaga erishish, tugri tashxis belgilash mumkin emas. Bundan tashkari ayrim sinf ishlarini, ba'zan yozma ishlarni kupincha esa ogzaki berilgan javoblarni baholashda xar xil yondashuvlar kayd etilishi mumkin. Bu sinovchi, ya'ni diagnostik taxlil utkazuvchi kilinayotgan ishlarning tub maksadiga tushunib etishiga, mas'uliyatiga, ishga bulgan yondashuviga va nixoyat uning saviyasiga boglik.

Budan kelib chikadigan amaliy xulosa shuki, pedagogik diagnostikani amalga oshirishda rioya-andisha, oshna-ogaynigarchilik, tanish-bilishchilik yoki boshka noxushliklar aralashsa, xakikiy axvol aniklanmaydi, umumiy ishga putur etadi, kamchilik va nuksonlar ochilmay xaspushlanadi, ta'limni takomillashtirishdan kuzda tutilgan maksadlar ochilmay koladi.

Pedagogik diagnostikaning ishonchliligi bir necha marta kilingan taxliliy xulosalar natijasining bir xilligi kayd etilgan xollardagina ta'minlanadi.

Agar buni muayan maktab, sinfning xayootiy faoliyati bilan boglasak, mabodo ukituvchi ilgarigi ishini oradan bir necha vakt utib, aynan ushanday baxolasa, ishonchlilik paydo buladi, lekin bunday xol afsuski amaliyotda kam uchramokda.

Pedagogik diagnostika natijalari kachon uzil-kesil tastiklanadi ?

Tajribalar, taxlillari shuni kursatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar xakkoniy buladi. Chunki bunda turt xil xulosa bir xil natija bilan baxolantladi. Bular,

- mazmunning tasdigi;
- har xil usul bilan olingan natijalarinshng bir xilligi;
- natijalarga kura amalga oshirilgan taxlillarning isbotlanishi;

loyixalashning tasdiklanishi ya'ni loyixalashtirishdagi natijalarning olingan xulosalarga uygunligi).

| 2- Mavzu | PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TADQIQOT METODLARI |
|---|---|

## 2.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 30 - 60 nafar. |
|---|---|
| O'quv mashg'lotining shakli | Vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1 Pedagogik diagnostikaning tadqiqot metodlari haqida umumiy tushuncha<br>2.Pedagogik diagnostika – kuzatuv metodi |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Pedagogik diagnostikaning tadqiqot metodlari haqida umumiy tushuncha. Pedagogik diagnostika – kuzatuv metodini o'rganish. | |
| **Pedagogik vazivalar** | **O'quv faoliyatinig natijalari** |
| - Pedagogik diagnos tika fanining tutgan o'rnini, ko'rsatish;<br>- Pedagogik diagnostikaning tad qiqot metodlari haqida umumiy tushunchalar berish;<br>-Pedagogik diagnostika – kuzatuv metodini aytib berish va o'rgatish | - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini aniqlash;<br><br>Pedagogik diagnostika fanining pedagogik diagnostikaning tadqiqot metodlari haqida umumiy tushunchalarga ega bo'la dilar<br><br>- Pedagogik diagnostika fanining pedagogik diagnostika – kuzatuv metodi bilan tanishadilar; |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster |
| **O'qitish vositalari** | Proyektor, tarqatma materiallar |
| **O'qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda ishlash |
| **O'qitish sharoitlari** | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya |

## 2.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Bosqichlar<br>Vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. Kirish (5 min.)** | 1.1. Mavzu maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.<br>1.2. Rejani ekranga chiqaradi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. E'tibor beradilar. |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)** | 2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi.<br>2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi. | 2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. |
| **3-bosqich. Asosiy (55 min.)** | 3.1. Quyidagi savol bilan murojat qiladi Pedagogik diagnostika – kuzatuv metodi xaqida gapiring?<br>3.2. Pedagogik diagnostika fanining pedagogik diagnostika ning tadqiqot metodlari haqida umumiy tushun chasini tushuntirish(2-ilova)<br>3.3Pedagogik diagnostika fanining pedagogik diagnostika – kuzatuv metodi aytib berish va o'rgatish(2.2 ilova) | 3.1. Gapiradilar.<br>3.2. Yozib oladilar.<br>3.3. O'rganadilar |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min.)** | 4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi. | 4.1. Eshitadilar.<br>4.2. Topshriqlarni yozib oladilar. |

2.


Pedagogik diagnostika
Faoliyat natijalarini sarhisob qilish
Amaliy xulosalar yasash
Bo'sh yoki muvaffaqi yatli o'rin larni belgilash
Faoliyatning keyingi bos qichlarida uni hisobga olish

2.2.


Pedagogik diagnostika ning kuzatuv metodlari
O'quvchining o'qishga munosabati
Ma's uliyati
Bilimga intilishi
Harakteri
Xulqi
Shaxsiy
Oilaviy
Ahloqiy
Ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega
Butun ijtimoiy jihati

# 2-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TADQIQOT METODLARI

## REJA:

1. **Pedagogik diagnostikaning tadqiqot metodlari haqida umumiy tushuncha**
2. **Pedagogik diagnostika – kuzatuv metodi**
3. **Pedagogik diagnostikada so'roqlash metodi**
4. **Pedagogik diagnostikaning test metodi**

Har qanday faoliyat zamirida ham amalga oshirilgan ishlarning pirovard maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari bo'ladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash, bo'sh yoki muvaffaqiyatli o'rinlarni belgilabolish – faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish pedagogic diagnostika deyiladi.

Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni olib borilgan pedagogic faoliyatni tahlil qilihda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muasasalarida bu ish uslubi muvaffaqiyatli tarzda amalgam oshirilmoqda, yutuqlar mustahkamlanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida yosh strategic yo'nalishlar belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qo'lga kiritilmoqda. Savol tug'iladi:

- bola qobiliyati, imkoniyat, bilimi, egallangan ko'nikmalarining o'lchovi bormi?
- bolaning bilish va ko'nikmalarini belgilashga o'qituvchu aralashgani ma'qulmi, yoki o'ziga-o'zi baho bergani afzalroqmi?

Mana shu savollarga eng maqbul asoslarda javob berish, pedagogik diagnostikaning predmetidir. Mana shu maqsadni ro'yibga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogic faoliyat tarixi bilan deyarli tengdosh, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayon ming yillardan beri mavjud bo'lsa bu faoliyatning me'yoralari va natijalarini belgilash ham

shunchalik qadimiydir. Demoqchimizki, o'quvchi bilimiga baho qo'yish, uni sinov va imtixon qilish pirovard ish natijalarini belgilab olish boshlangan yerda pedagogic diagnostika ham mavjud. Faqat farq shundaki, ibtidoiy va o'rta asr pedagogikasida bola bilimi va iqtidorini diagnostic tahlil qilishning ilmiy asosi yo'q edi. Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda tahlil etish va yo'lga qo'yish 20 asr boshlarida amalgam oshirilgan. Shu boisdan, bu pedagogic jarayonning nomlanishi ham turlicha bo'lgan.

Ayrimlar pedagogik diagnostikani taklif etilgan bilimlarni o'zlashtirish asosi deyiladi. Boshqalar diagnostika o'qitishni jadalashtiruvchi axborotdir deb hisoblaydilar. Yana ayrimlar esa diagnostic egallagan bilim sifatini nazorat etishdir, degan fikrn ilgari suradilar.

Taniqli pedago olim Matserman pedagogik diagnostikani "O'quvchi o'zlashtirishi bilan o'quv materialini to'g'ri tanlash maqsadni to'g'ri yo'naltirish mezonidir" deb hisoblaydi.

Aslida pedagogik diagnostika o'quv materialini bilish jarayonining asosini tashkil etib, maqbul pedagogik xulosaga kelishga zamin yaratadi.

Shu boisdan ham, pedagogik diagnostika:

birinchidan, o'quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiriladi;

ikkinchidan, davlat va jamiyatning ta'limga qo'ygan talablaridan kelib chiqib, oquvchi bilimin to'g'ri, adolatli baholashni ta'minlaydi;

uchinchidan, ishlab chiqilgan ta'limiy mezon, kriteriyalar orqali o'quvhcining sinfdan singdan o'tishida, mutaxassislikkka qabul qilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi. Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi, boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta'lim obyekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada o'zlashtirilganligi tahlil etiladi. Butun o'quv kursini, o'quv dasturlaini o'zlashtirish darajasi baholanadi. Pedagogi diagnostika muhim ahamiyatga ega. U o'quv-tarbiya jarayonini yaxshilahsga xizmat qiladi. Ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo'l ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy

ta'sir qiladi. Pedagogic diagnostika tarixiga nazar tashlasak, o'tgan asrlarda u faqat o'quvchi bilimini baholash orqali amalgam oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864 yilda AQSh olimlari D.Fisher va R.Reslar asos solganlar, 1908 yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orqali o'quvchi bilimini sinash tizimini tadbiq etgan. Egallangan malakani aniqlashga kiritilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatning ayrim jihatlari:

a) taqqoshlash;
b) pedagogik tahlil;
c) avvaldan ayta bilish (prognoz);
d) interpretatsiya ;
e) pedagogik diagnostika natijalarini o'quvchilarga etkazish;
f) amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o'quvchilarga yetkazish;
g) pedagogik diagnostika metodlarini to'g'ri belgilashdan iborat bo'lgan.

Pedagogik diagnostikaning eng muhim kriteriylari esa:

- haqqoniylik (ob'ektivnost);
- ishonchlilik (nadyojnost);
- puxtalik (vidnost) asoslanadi

Diagnostik tahlillar qachon ob'yektiv boladi.

1. - agar sinov natijalari turli tekshiruvlarda bir xil natijalar ko'rsatilib, ko'rsatkichlar o'zaro bir-biriga yaqin bo'lsa;
   - agar: sinov mezonlari, o'lchovlari birligi hamda uning natijalari sinovni amalga oshiruvchi, aniqlovchining shaxsi hislati va munosabatlariga bo'liq bo'lmasa;
   - agar: sinov bir xil talab, bir xil munosabat, psixologik kayfiyatda amalgam oshirilsa haqiqiy ahvolni aniqlashda ob'yektiv natijalar olinishi mumkin. Modomiki maqsad haqiqiy ta'limiy ahvolni aniqlash ekan, unga to'g'ri, halollik, haqqoniylik bilan yondohish zarur. Aks holda, diagnostikadan ko'zlangan natijaga erishish, to'g'ri tashxis belgilash mumkin emas. Bundan tashqari, ayrim sinf ishlarini, ba'zan yozma ishlarni, ko'pincha esa og'zaki berilgan javoblarni baholashda har xil yondashuvlar qayd etilishi mumkin. Bu sinovchi ya'ni, diagnostic tahlil

o’tkazuvchi qilinayotgan ishlarning tub maqsadiga tushunib yetishga, mas’ulitaiga, ishiga bo’lgan yondashuvga va nihoyat uning savoyasiga bo’g’liq. Bundan kelib chiqadigan amaliy xulosa shuki, pedagogik diagnostikani amalga oshirishda rioya-andisha, oshna-og’aynigarchilik, tanish-bilishchilik, boshqa noxushliklar aralashsa, haqiqiy ahvol aniqlanmaydi, umumiy ishga putur yetadi, kamchilik va nuqsonlar ochilmay haspo’shlanadi, ta’limni takomillashtirishdan ko’zda tutilgan maqsadlar ochilmay qoladi.

2. Pedagogik diagnostikaning ishonchliligi bir necha marta qilingan tahliliy xulosalar natijasining bir xilligi qayd etilgan xollardagina ta’minlanadi. Agar buni muayyan maktab, sinfning hayotiy faoliyati bilan bog’lasak, mabodo o’qituvchi ilgarigi ishini oradan bir necha vaqt o’tib, aynan o’shnday baholasa, ishonchlilik paydo bo’ladi, lekin bunday hol afsuski amaliyotda kam uchramoqda. Pedagogik diagnostika natijalari qachon uzil-kesil tasdiqlanadi. Tajribalar, tahlillar shuni ko’rsatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar haqqoniy bo’ladi. Chunki bunda to’rt xil xulosa, bir xil natija bilan baholanadi bular:
   - mazmunning tasdig’i;
   - har xil usul bilan olingan natilalarning bir xilligi;
   - natijalarga ko’ra amalga oshirilgan tahlillarning isbotlanishi;
   - loyihalashning tasdiqlanishi (ya’ni, loyihalashtirishdagi natijalarning olingan xulosalarga uyg’unligi).

## PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA – KUZATUV METODI

Pedagogik diagnostika kuzatuv uslubi o’quvchining o’qishga munosabatini, mas’uliyatini, bilimga intilishini aniqlaydi. Tabiiyki, o’quvchidagi bunday hislatlarni belgilahda uning xarakteri, xulqi, butun ijtimoiy jihatlariga katta ahamiyat beriladi. Chunki, o’quvchining bilim va ko’nikmalarini attestatsiya qilishda shaxsiy, oilaviy, axloqiy ko’rsatkichlar muhim rol o’ynaydi.

## Baho shkalasi

Baho malakasi ham bola shaxsini, uning o'qishga munosabatini to'g'ri belgilahdagi muhim omildir. Uni pedagog olimlar turli davra turlicha ifodalaganlar. Masalan, bolalarning mashg'ulotlar paytidagi qiziqish darajasini 1978 yilda AQShlik olim Oini Fitaku quyidagi shkala bo'yicha aniqlashni tavsiya etgan edi.

| Hech qanday qiziqish yo'q | Qiziqishi noaniq | Qandaydir qiziqishlar sezildi | Katta qiziqish bor | O'ta qiziquvchan |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

**O'zining fikrlashida o'quvchi:**

| Juda tanqidiy +2 | Tanqidiy fikrlashga moil +1 | Konformga moil -1 | O'ta konformli -2 |
|---|---|---|---|
| | | | |

**O'zaro hamkorlikka moillik**

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|

**--------bo'sh-----------------------------o'rta--------------------------------kuchli--------**

Shuning uchun ham maktab o'quvchilarining koeffitsiyenti bola olgan bilimlari bilan belgilanadi. Past ko'rsatkich olgan o'quvchiga ko'proq e'tibor berish lozim. Lekin, asosiy e'tibor yaxshi va a'lochi o'quvchiga qaratiladi.

Ustiga ustak o'quvchi13-15 yoshida o'ziga katalardek muomala qalishni talab etadi. Lekin, o'qituvchilarning ayrimlari boladagi bunday psixologik

kaffiyatlarni hisobga olmay, unga bola sub'yekt sifatida qaraydilar. Aynan mana shu sababli o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ixtilof kelib chiqadi.

## PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA SO'ROQLASH METODI

Mazkur uslub pedagogik diagnostikada qadim-qadimdan qo'llanib kelinadi. U deyarli o'qish o'qitish jarayoni boshlangandan bo'yon mavjud. Agar diagnostikaning kuzatish usulida bolaning axloqiy-ma'naviy tamoyillari, qiziqishi, munosabati, fikrlash doirasi o'rganilgan bo'lsa, suhbat. Savol-javob ko'proq axborot to'plash imkoniyatini beradi. Bunda u yoki bu shaxs to'g'risida ob'yektiv yoki sub'yektiv ma'lumot olish imkoniyati mavjud.

Axborot – og'zaki, yozma, standartlashtirilgan, yakka, guruhlarga bo'lingan hoilda bir yoki bir necha bor so'rash asosida to'planadi.

## PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TEST METODI

Odatda tekshiruvchi tomonidan amalga oshirilgan barcha nazorat shakl va uslublari ham testga kiradi.

Nazoratning test uslubi ilmiy asoslarga qurilgan bo'lib, u ma'lum talab, qonun-qoidalar zaminida olib boriladi.

Test asosan psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tavsiya etilgandir. Test pedagogik diagnostika metodlari orasida eng qulay hisoblanib, u bir jihatdan sifatli ma'lumot berishi bilan ajralib turadi.

Test sinova mutzam takomillashib boradi. Unga turlibosqichlarda turlicha ta'rif berib kelingan. Masalan, nemis oilimi Liner "Test shaxsning turli xolatlarini, shaxsiy xususiyat, imkoniya va qobiliyatini aniqlovchi ilmiy metoddir" deb ta'riflaydi.

Test usuli chinakamiga pedagogik diagnostika metodi bo'lib, u o'quv jarayonining pirovard natijasini ob'yektiv aniqlab berishga qodir mezondir. U doimo tahlil asosiga qurilib, aynan shu xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayon natijalarinig takomillashib borishiga yordam beradi. Ayni paytda testlar ta'limiy xulosalar bilan birga texnologik vaziyatni, istiqbolni, harakat yo'nalaishina ham belgilab beradi. Shunga ko'ra testlar qutidagilarga bo'linadi:

1) ta'limiy muvaffaqiyatlarni aniqlaydigan test;
2) shaxs taraqqiyotni va uning imkoniyatlarini belgilaydigan test;
3) intellektni aniqlaydigan test;
4) umumiy natijani aniqlaydigan test;
5) muayyan hududda, maktabda u yoki bu fanni o'qitish samaradaorligini ko'rsatuvchi test;
6) professional kasbga moyillik layoqatini, shaxsning funksional imkoniyatlarini aniqlovchi test;
7) shaxs psixologiyasini ochib beruvchi test;
8) shaxsning yo'naltirilganligini belgilovchi test;
9) shaxsning qiziqishi, moyilligini aniqlab, shu sohani takomillashtirishga yordan beruvchi test;
10) klinik test va h.k

Yuqorida bayon etilganidek, test ham baholash, pedagogik diagnostika hisoblanadi. O'quvchilar bilimini bu usulda baholash 1930 yilda boshlangan. Lekin, keyingi paytlarda u keng joriy qilinmoqda. Istiqbolda o'quvchilar bilimini baholashda test, reytin tizimi ustuvor bo'lib qoladi. Besh ballik baholash tizimi o'quvchini har tomonlama baholashga noqulayligi uchun undan voz kechish fikridamiz. Test imkonoyatlarini bayon etishni davom ettiramiz.

Amaliyotda o'zlashtirishga qaratilgan testlar tobora ko'proq o'rin olib bormoqda. O'zlashtirishga qaratilgan testlar:

- muyyan predmetni o'zlashtirishga qaratilgan testlar;
- o'zbek tilini o'zlashtirishga qaratilga testlar;
- chiroyli yozuvni belgilashga yo'naltirilgan testlar;
- o'qish tezligi va texnikasi baholovchi testlar;
- so'z boyligini aniqlovchi testlar;
- bolaning rivojlanishini va maktabga tayyorligini aniqlovchi testlar;
- bolaning intellectual faoliyatini aniqlashga qaratilgan testlar;
- bolaning didatik ko'nikma va malakasini belgilovchi testlar va h.k.

O'zlashtirish nima va u qanday aspektlarda namoyon bo'ladi?

1. O'zlashtirish bu – o'quvchining fanni o'qib, o'rganishda eishgan natijalari;

2. O'zlashtirish bu – o'quvchiga maktab, demakki, davlat va jamiyat tomonidan qo'yilgan talabga erishish;
3. O'zlashtirish o'quvchining muayyan davrda qilgan mehnatining yakunidir.

Ma'lumki, ta'lim markazida unon, shaxs turadi va barcha ta'limiy jarayonlar uning qobiliyati, imkoniyati, ehtiyojiga qaratiladi. Pedagogik diagnostika esa, ana shu intilish, mehnat, faoliyat samarasini ham ijobiy, ham salbiy jihatdan belgilab beradi.

Test asosida o'quvchi o'zlashtirishini aniqlash pedagogik diagnostikaning metodi ekanligini yuqorida bayon etgan edik.

Oli Kyuforker maktabda amalgam oshiriladigan testlarni 3 ko'rinishga bo'ladi. Ular quyidagilar:

- o'zlashtirishni muayyan ir davr ichida aniqlovchi test (masalan, urli sertifikatlar olish uchun tipshirilgan test);
- o'quv qo'llanmasining ma'lum bir qismi, bo'limi, bobda olingan axborotlarni qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlovchi test;
- o'quv dasturi yoki darslikdagi bir qism mashg'ulotlar o'tkazoilgandan keyingi o'quvchi o'zalshtirishidagi yutuq va nuqson tamoyillarini aniqlsh testi.

Pedagogik diagnostikaning o'lchovi, ishonchlilik koeffisiyenti mukammal va ishonchli bo'lmog'i uchun:

- qayta testdan o'tkazish metodi;
- ikkiga bo'lingan holda parallelli testni amalgam oshirish, shu orqali olingan ma'lumotning ishonchliligini tekshirish mumkin.

Aniqlik, ishonchlilikni tekshirish maqsadida 4 xil usul qo'llaniladi. Ular:

- mazmun tasdig'i;
- har xil usullar bilan olingn natijalarni bir xil ko'rsatkichga olib kelish tasdig'i;
- tahlillar natijalarining mos kelishi tasdig'i;
- loyihalashning tasdig'idan iboratdir.

Pedagogik diagnostikada amal qilayotgan test sinovlari hududiy diagnostikani yo'lga qo'yishda ham katta imkoniyat va qulayliklarga ega.

Pedagogik diagnostikani ta’lim sohasining istalgan sohasini tahlil qilishda ham joriy etish mumkin. Masalan, Xalq ta’limi vazirligi xalq ta’limining xududiy boshqarma va bo’limlari faoliyatini uzoq yillardan beri 15 yo’nalish bo’yicha aniq tahlil etib bormoqda. Tahlil natijalari esa har qanday baxs va munozaralardan holidir.

Maqsad esa bitta – kamchilik va nuqsonlardan to’g’ri amaliy xulosalar chiqarish, faoliyatning asosiy va to’g’ri yo’nalaishini belgilab olish va ularni bartaraf qilishda sabot bilan islashdan iborat.

| 3 - Mavzu | PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING SO'ROQLASH VA TEST METODI |
|---|---|

### 3.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 30 - 60 nafar. |
|---|---|
| O'quv mashg'lotining shakli | Vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Pedagogik diagnostikada so'roqlash metodi<br>2.Pedagogik diagnostikaning test metodi |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Pedagogik diagnostikada so'roqlash metodi Pedagogik diagnostikaning test metodini o'rganish. | |
| **Pedagogik vazivalar** | **O'quv faoliyatinig natijalari** |
| - Pedagogik diagnos tika fanining tutgan o'rnini, ko'rsatish;<br>- Pedagogik diagnostikada so'roq lash metodini tushun tirish;<br>- Pedagogik diagnostika fanining test metodini o'rgatish | - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini aniqlash;<br>- Pedagogik diagnostika fanining pedagogik diagnostikada so'roqlash metodini tushunadilar<br>- Pedagogik diagnostikaning test metodi bilan tanishadilar; |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster |
| **O'qitish vositalari** | Proyektor, tarqatma materiallar |
| **O'qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda ishlash |
| **O'qitish sharoitlari** | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya |

## 3.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Bosqichlar<br>Vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. Kirish (5 min.)** | 1.1. Mavzu maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.<br>1.2. Rejani ekranga chiqaradi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. E'tibor beradilar. |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)** | 2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi.<br>2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi. | 2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. |
| **3-bosqich. Asosiy (55 min.)** | 3.1. Quyidagi savol bilan murojaat qiladi Pedagogik diagnostikaning test metodi haqida gapiring?<br>3.2. Pedagogik diagnotika fanining pedagogik diagnostikada so'roqlash metodini tushuntirish(3.1 ilova)<br>3.3.Pedagogik diagnostika fanining pedagogik diagnostik test metodini o'rganadilar(3.2) | 3.1. Gapiradilar.<br>3.2. Yozib oladilar.<br>3.3. O'rganadilar |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min.)** | 4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi. | 4.1. Eshitadilar.<br>4.2. Topshriqlarni yozib oladilar. |

**3. 1.**


Fikrlar doirasi
Munosa bati
Suhbat
Qiziqishi
Axborot to'plash
Bolalar ning ahloqiy, ma'naviy tamoyillari
Savol – javob
I m k o n I y a t
Pedagogikada so'roqlash metodi

3.2.


PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TEST METODI
Ta'limiy muvofaqqiyatlarni aniqlaydigan test
Shaxs taraqqiyoti va uning imkoniyatlarini belgilaydigan test
Intellektni aniqlaydigan TEST
Umumiy natijani aniqlaydigan TEST
Muayyan hududda, maktabda u yoki bu fanni o'qitish samaradorligini ko'rsatuvchi TEST
Professional kasbga moyillik layoqatini, shaxsni funktsional imkoniyatlarini aniqlovchi test
Shaxs psixologiyasini ochib beruvchi test
Shaxsning yo'naltirilganligini belgilovchi test
Shaxsning qiziqishi, moyilligini aniqlab, shu sohani takomillashtirishga yordam beruvchi test

| 4 - Mavzu | PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA PRINSIPLARI |
|---|---|

## 4.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 30 - 60 nafar. |
|---|---|
| O'quv mashg'lotining shakli | Vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1 Pedagogik diagnostikaning metodlari<br>2. Tertlash aqliy rivojlanishning baholash metodi sifatida |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Pedagogik diagnostikaning metodlari.Tertlash aqliy rivojlanishning baholash metodini o'rganish. | |
| **Pedagogik vazivalar** | **O'quv faoliyatinig natijalari** |
| - Pedagogik diagnos tika fanining tutgan o'rnini, ko'rsatish;<br>- Pedagogik diagnostika ning metodlarini tushuntirish;<br>- Pedagogik diagnostika fanining testlash aqliy rivojlanishning baho lash metodini o'rgatish | - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini aniqlash;<br><br>- Pedagogik diagnostika fanining pedagogik diagnostikaning metodlarini tushunadilar<br><br>-Pedagogik diagnostika fanining tertlash aqliy rivojlanishning baholash metodini o'rganadilar |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster, bumerang |
| **O'qitish vositalari** | Proyektor, tarqatma materiallar |
| **O'qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda ishlash |
| **O'qitish sharoitlari** | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya |

## 4.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

| **Bosqichlar Vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. Kirish (5 min.)** | 1.1. Mavzu maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.<br>1.2. Rejani ekranga chiqaradi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. E'tibor beradilar. |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)** | 2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi.<br>2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi. | 2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. |
| **3-bosqich. Asosiy (55 min.)** | 3.1. Quyidagi savol bilan murojat qiladi Pedagogik diagnostikaning metodlari xaqida gapiring?<br>3.2. Pedagogik(4.1ilova) diagnostikaning metod larini tushuntirish;<br>3.3 Pedagogik diagnostika fanining tertlash aqliy rivojlanishning baholash metodini o'rgatish(4.2 ilova) | 3.1. Gapiradilar.<br>3.2. Tushunadilar.<br>3.3. O'rganadilar |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min.)** | 4.1. Mavzuga hulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi. | 4.1. Eshitadilar.<br>4.2. Topshriqlarni yozib oladilar. |

4.1


TESTLASH metodi
Individual farqlarni tahlil qilishning ob'ektiv metodi
Pedagogik diagnostika ning metodlari

4.2.


Pedagogikaning tadqiqot metodi
Psixodiagnostik metodlar
O'quvChilarni o'rganish metodlari
Pedagogik diagnostikaning bosqichlari va printsiplari

# 4-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA PRINSIPLARI

## REJA:

**1. Pedagogik diagnostikaning qadimgi davrdagi rivojlanish bosqichi**

**2. Ta'limda bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish printsipi**

**3. Diagnostik tahlil.**

Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil qilishda, katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muassasalarida bu ish uslubi muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Yutuq, mustaqhamlalanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar tahlil qilish asosida bosh strategik yo'nalishilari belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qo'lga kiritilmoqda.Taniqli pedagogik olim Matserman pedagogik diagnostikani «o'quvchi o'zlashtirishi bilan, o'quv materialarini to'g'ri tanlash, maqsadni to'g'ri yo'naltirish mezonidir» deb hisoblaydi.Shu boisdan ham, pedagogik diagnostika birinchidan, o'quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi, 2 chidan, davlat va jamiyatni ta'limga qo'ygan talablaridan kelib chiqib o'quvchi bilimini to'g'ri adolatli baholashni ta'minlaydi, 3 chidan, ig`ch-m ta'limiy mezon, kriteriyalar orqali o'quvchini sinfdan - sinfga o'tishida, mutaxassislikka qabul qilishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi. Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim - tarbiya jarayoni to'g'ri tahlil
etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi. Pedagogik diagnostika muhim ahamiyatga ega. U o'quv tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo'l ochadi, pirovard natijada ta'limning
takomillashib borishiga ijobiy ta'siri qiladi. Pedagogik diagnostikani eng muhim kriteriyalar esa:

1. Xaqqoniylik
2. Ishonchlilik
3. Puxtalik

maktab ta'lim - tarbiya jarayonining hamma sohasida muntazamlilik va izchillik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maktab o'quv predmetlariing muntazamliligi ustida gap borar ekan uni fan va fanni o'rganish tizimidan farq qilish lozim. Fan va uni o'rganish tizimi o'ziga xos ko'p qirrali, chuqur va murakkab hodisalarni o'z ichiga oladi. Uni o'quv predmetlari esa predmetlarni o'rganish tizimiga tatbiq etib bo'lmaydi, bu mumkin ham emas. Shunday bo'lishiga qaramay bu ikki tizim o'rtasida umumiylik, birlik va muayyan ichki mantiqiy bog'lanishlar mavjuddir. Shunga ko'ra maktab o'quv predmetlarini muntazam bayon qilish bir qator didaktik qoidalarga amal qiladi, ya'ni bir tomondan umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan predmetlar ma'lum fan tizimi bilan o'zaro mustahkam, ilmiy va mantiqiy bog'lanishlarga ega bo'lishi nazarda tutilsa, ikkinchi tomonidan, izchil muntazam o'qitilayotgan predmetlar orqali o'quvchilarning bilish qobiliyati, o'zlashtirish darajasi va ularning ijodiy kuchlarini rivojlantirib borish nazarda tutiladi. Buning uchun maktab ta'limi jarayoni muntazamlilik qoidasi - printsipining quyidagi qoidalariga rioya qilishi lozim, ya'ni o'tilayotgan predmet yoki bayon qilinayotgan yangi materialiing o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan ilmiy
bilimlari, ko'nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog'lanishi, shu bilan bir vaqtda o'qitilayotgan predmet yoki o'quv materiallarini o'zlashtirish orqali kelajakda yangi predmet yoki yangi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek navbatdagi ta'lim bosqichiga o'tish uchun zamin yaratilishi nazarda tutilmog'i lozim. O'qituvchi kundalik o'quv materialarini bayon qilishda muntazamlilik qoidasiga muvofiq dars o'tadi Bunda: 1) yangidan bayon qilinayotgan o'quv materialining oldindan o'zlashtirilgan materiallar bilan izchil bog'lanishini ta'ninlash va shu orqali o'quvchilarda hosil qilingan tasavvur - va tushunchalarni kengaytirish hamda chuqurlashtirish; 2) bayon qilinayotgan o'quv materiallarining hajmiga muvofiq suratda qismlarga bo'lish undagi etakchi bosh masalalarni ajratish, qismlardan kelib
chiqadigan umumiy tushunchalarni aniq va ravshan qilib o'qitish; 3) yangi materialni bayon qilish jarayonida o'quvchilarni mustaqil mantiqiy fikr qilishga da'vat etish, shuningdek ijodiy urinishlarni tarbiyalash kabilar nazarda tutilmog'i

lozim. Shu bilan birga ta'limning muntazamlilik printsipi bayon qilinayotgan o'quv materiallarini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga hizmat qilishi, o'quvchilarning uzluksiz va izchil suratda mustaqil ish olib borishlarini: o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil qilgan ko'nikma va malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi. Ta'limning muntazamliligi uning izchil bo'lishi bilan bog'liqdir. Izchillikka asoslangan ta'limning harakterli belgisi shundaki, u o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish. Ularniig o'zaro bog'lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldin o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yana ham chuqurlashirish, kengaytirish va mustahkamligini ta'minlashga qaratilgandir. Ya.A.Komenskiy «izchillikka rioya qilib o'qitish lozim, toki bugun, o'rganilgan ilmlar kecha o'rganilganlarni mustahkamlasin, erta o'rganiladiganlarga zamin hozirlasin» degan edi.

## TA'LIMDA BILIMLARNI PUXTA VA MUSTAHKAM O'ZLAShTIRISh PRINSIPI.

Ma'lumki, puxta o'zlashtirishning harakterli belgisi mustahkam esda saqlab qolishdir. boshqacha qilib aytganda, bu printsip o'quvchilarning xotira faoliyati, ya'ni o'quv materiallarini esda qoldirish, esda saqlash va qayta esga tushurish kabi xotira jarayoni faoliyatiga bog'liqdir. O'quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish ayni dars jarayonida bayon qilinayotgan o'quv materiallarini sistemali va ongli o'zlashtirishlariga bog'liq biroq puxta o'zlashtirishning muvaffaqiyati esa ko'p jihatdan takrorlash va mashq qildirishga bog'liqdir. Takrorlash va mashq qildirishning mustaqil va alohida - alohida o'qitish metodi sifatida ishlatiladigan usul va vositalarining turi xilma - xildir. Biroq gap puxta o'zlashtirishning didaktik asoslari ustida borar ekan, takrorlashning bilimlarni xotirada saqlab qolishdagi ahamiyatini ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir. Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash jorayonida faqat oldindan o'zlashtirilgan o'quv materiallarigina esga tushirilmay, balki shu o'quv materiallariga bog'liq bo'lgan yangi - yangi ma'lumotlar ham berildi. O'zlashtirilgan bilimlarning noaniq, tumanli

bo'lib qolgan tomonlari oydinlashtiriladi va to'ldiriladi. O'quvchilar maktabda tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni har tomonlama egallash orqali tushunishga, mustaqil hayotga tayyorlanadilar va ma'lumotli kishilar bo'lib etishadilar. O'zlashtirilgan bilimlarning, o'quv materialning qanday egallaganligini bilish o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda o'qituvchi o'quvchilarning bilim. ko'nikma va malakalarini o'z vaqtida tekshiradi, hisobga oladi va baholab beradi. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining eng muhim va zaruriy qismlaridan bo'lib, u 3 asosiy vazifani bajaradi:

a) bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni nazorat qilish;

b) bilimlarning sifatini aniqlash;

v) o'quv dasturida belgilangan materiallarni ongli, izchil va mustahkam o'zlashtirib olishga undash. Bu masalalar ta'limiy ahamiyatga molikdir. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash jarayonida o'quvchilar o'qishga ongli munosabatda bo'lishga, izchil ishlashga, ongli intizomga, qiyinchiliklarni engish, o'zida irodaviy sifatlarni o'stirishga, o'ziga hamda boshqalarga nisbatan talabchan bo'lishga o'rgatib boradi. Bu masalalar esa katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Uquvchilar bilimini tekshirish bolalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimning sifatini aniqlash, ularni o'quv dasturida belgilangan materiallarni izchil va puxta o'zlashtirib olishga da'vat etish vositasidir. O'qituvchi bilimlarni tekshirish orqali o'quvchining o'quv materialini qanday idrok etib tushunganligini qanday fikr yuritayotganligini, dasturda belgilangan o'quv materiallarini qay darajada umumlashtirib olganligini aniqlaydi hamda keyingi o'quv materiallarini o'rganish ta'lim sifatini yaxshilash yo'llarini belgilaydi. Shu bilan birga o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini o'rganish va tekshirish ularning o'qishga bo'lgan munosabatini, tirishqoqligini, o'ziga talabchanligini, bilimga, era bo'lgan qiziqishini bilishga imkon beradi. Shuningdek, bolalarning xotirasi, bilish qobiliyatining qay darajada o'sganligi, ulariing mustaqil ishlashga ko'nikma va malakalarni qay darajada egallaganliklari aniqlanadi. Tekshirish vaqtida o'quv materiallari esga olinadi va o'quvchilarni sezish, idpok qilish, fikrlash qobiliyatlari

ham o'sib boradi. Bu jarayonda o'quvchilar keng fikr yuritishga, o'quv materiallarini asoslashga, mulohaza yuritish, isbotlashga o'rganadilar. Uquvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishning yana bir muhim tomoni shundaki, ana shu jarayonda o'quvchilarning bilimlari va bajargan ishlaridagi kamchiliklar sezilib qoladi va nihoyat mazkur kamchiliklarning sabablari aniqlanadi. kamchiliklarni bartaraf etish choralari belgilanadi. Bilimni tekshirish va baholash darsning barcha qismlariga singib ketadi. Shunday ekan, o'quvchi bilimidagi kamchiliklarni -to'ldirishga o'rganilayotgan masalaning asl mohiyatini anglashga yordam beradi va o'pganilayotgan materialni tushunishga keng imkoniyat yaratadi. O'quvchilarning bilim. ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash jarayonida o'qituvchi ayrim o'quvchilarga va butun sinf jamoasi izchil ta'sir etadi. Individual ishni sinf jamoasi ishi bilan qo'shib olib boradi. Tajribali o'qituvchilar o'quvchi bilimini baholash jarayonida sinf jamoasi fikriga suyanadilar va o'quvchilarga tarbiya tarbiyaviy ta'sir etadilar. Bunda o'qituvchi sinf o'quvchilari diqqatini faollashtiradi. O'rtoqlarining javobiga ma'suliyat bilan qarashga o'pgatadi. Shuningdek o'z bilimlarini mustahkamlashga, o'z bilimiga tanqidiy qarashga odatlantiradi. Bu esa o'quvchini o'z vaqtida vijdonli, rostgo'y bo'lishga o'rgatadi.

Uqituvchi bilimga baho qo'yish vaqtida o'quvchining materialni o'zlashtirish saviyasi, bola tafakkurining o'sish darajasi, zehnining rivojlanishi kabi xususiyatlarni hisobga oladi: o'quvchilarning ishlash surati qobiliyati, o'qishga ishtiyoqi, nutqning o'sish darajasi o'rganiladi shuningdek, ayrim o'quvchilarda uchraydigan qo'rqoqlik, uyatchanlik, tortinchoqlik o'z kuchga ortiqcha baho berish, ishonmaslik, shoshqaloqlik, kamgaplik kabi xususiyatlari bartaraf etiladi. Buning natijasida ta'lim

jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining uyg'unligi ta'minlanadi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarda o'qishga o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, qiyinchiliklarni engish istagi tug'iladi. Baho unda ham o'quvchi sifatida baxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni xosil qiladi. O'quvchining o'ziga nisbatan bu munosabatni bu tuyg'ularini o'qituvchi

uning hatti - harakatlaridagi irodalilik, jamoatchilik o'zaro bir - biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirish borasida ustalik bilan ishlatadi.

O'quvchi o'rtoklarining, ota - onalarining unga, uning maktabdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklarga munosabatiga xech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan kundalik daftariga qo'yilgan baxolar uning munosabatni belgilaydi mana shuning uchun ham maqtov, ma'qulla tanbeh berish yaxshi yoki yomon baho qo'yish o'quvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasida va katta yoshda ular orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir. Kimki bilimlarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyatini to'gri qo'llay bilsa, hap 6ir o'quvchi oldida o'qish sohasida qulay istiqbollarni ochib beradi. Bilimlarni tekshirish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Xalq ta'limi tashkilotlari o'quv faoliyatini tekshirish natijalariga maktab o'quvchilari olgan bilimlar, ko'nikma va malakalarning baxosiga binoan maktablar, o'qituvchilar jamoalarining ishi haqida, o'quvchilarning o'zlashtirishi haqida xulosa chiqaradilar.

Bilimlarni tekshirishga qo'yiladigan talabalar. Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Bu talabga rioya etilmasa, o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga sal'biy ta'sir qiladi. Maktab o'quvchilari darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak. O'quvchilarni doimiy ravishda nazarot qilib tekshirish shunga majbur etiladi. Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bip o'quvchi uning bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini tushunish kerak. Uning o'rtoqlaridan birortasi ham u bilan na yaxshi na yomon bahoni baham ko'pa olmaydi. O'qituvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayergarlik holati bilimlarni, tekshirish va baholash, o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga aylangan. Maktab o'quvchilarining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv dasturlarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi. Dasturlar mazmunini o'zlashtirish sifati - bilimlarni baholashda asosiy mezondir. O'qituvchi o'quvchining qanday qo'shimcha bilimlarga ega ekanligini, qanday qo'shimcha adabiyotlarni o'qishini bilishi kerak, ammo buning uchun baho qo'ymaslik kerak. Maslahatlar, tavsiyalar, yo'riqnomalar bilan yordam berishning o'zi kifoya qiladi.

Maktab o'quvchilarining nazariy va faktik materialni o'zlashtirib olganliklarini tekshirish chog'ida olinayotgan bilimlar o'quvchilarning umumiy va aqliy jihatdan rivojlanishiga shaxsiy fazilatlarning shakllanishiga, maktab o'quvchisining o'qishga munosabatiga
ta'sirini ko'ra bilish kerak. Bilimlarni tekshirish o'qituvchi maktab o'quvchisining rivojlanish jarayonini shaxsning aqliy, ahloqiy, emotsional va irodaviy fazilatlarining shakllanish jarayonini ko'z oldiga keltirishga yordam beradi. Uqituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashda juda adolatli, haqqoniy bo'lishi lozim. Bu hol o'z navbatida o'quvchi shaxsiga ijobiy va tarbiyaviy ta'sir etadi. Har qanday adolatsizlik o'qituvchining bilimiga baho qo'yishdagi xatosi o'quvchilarga salbiy ta'sir etadi, ularda o'z kuchiga ishonchni yo'qotadi, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi. Oqibatda o'qituvchining tarbiyaviy ta'siriga putur etadi. O'qituvchi o'kuvchining bilimini har qanday holda ham to'g'ri baholashi kerak. Faqat o'ylab, xaqqoniy qo'yilgan bahogina o'quvchilarga ijobiy ta'sir
etadi, ularni ma'naviy qanoatlantiradi. O'qituvchining sinfdagi xatti - harakati, savolning o'ylangan bo'lishi va to'g'ri qo'yilishi, bilimni tekshirish va baholashda qulay vaziyat yaratilishi bahoning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi. O'qituvchi bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholashda o'quvchi javobini tahlil qilib boradi va javoblar yuzasida o'z muloxazalarini aytadai. O'quvchi javob berayotganida qanday hato kamchiliklarga yo'l qo'yganini ko'pincha uning o'zi sezmaydi. Bunday holda o'qituvchi o'quvchining javobini qisqacha tahlil qilib borishi talab qiladi. Bunda o'qituvchi qo'ygan bahoning to'g'riligiga o'quvchida shubxa qolmaydi. O'quvchi o'z bilimida qanday yutuq yoki kamchilik borligini nima uchun uning bahosi oshijzilgini yoki pasaytirilganini anglagandagina qo'yilgan baho rag'batlantiruvchi rol o'ynashi mumkin. O'quvchi o'z xatosini to'la tushungandagina uni to'g'rilashga ongli ravishda intiladi. O'qituvchi o'quvchi bilimini ball bilet baholar ekan, erishgan yutug'i uchun rag'batlantiradi, kamchiliklarni qayd qilib koyiydi. Yo'l qo'ygan xato - kamchiliklarini
qanday bartaraf etish yo'llarini, dars tayyorlash vaqtida asosiy e'tiborni nimalarga qaratish kerakligini ko'rsatadi. Bunday asoslash o'quvchining bundan keyingi

faoliyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishning quyidagi turlari mavjud. Kundalik tekshirish, mavzu bo'yicha tekshirish va yakuniy tekshirish, Kundalik tekshirish maktablarimizda o'quvchilar bilimini hisobga olishda ko'p qo'llaniladigan tekshirish turidip. Bu bilan o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish, ularni o'qishdagi muvaffaqqiyati to'g'risida dastlabki tasavvur hosil qilinadi. O'qituvchi o'quvchilarning darsga tayyorgarligini yangi materialni o'zlashtirishini har darsda tekshirib boradi.

Yangi materialni o'zlashtirishini esa butun dars davomida kuzatib boradi. Kundalik tekshirish o'qituvchi tomonidan rejali va izchil olib borilishi lozim. Bunda o'tilayotgan materialning xarakteri o'quvchilarning bilim daraja va individual xususiyatlari hisobga olinadi kundalik tekshirish o'pganilgan o'quv materiali o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganini ko'rish, o'quvchi bilimidagi kamchiliklarni aniqlash va bu kamchiliklarni tugatish yo'llarini belgilash imkonini beradi. Kundalik tekshirish o'quvchilarni o'z ustida izchil ishlashga, puxta o'zlashtirishga, mustaqillikka odatlantiradi. Shuningdek, tirishqoq uyushqoq bo'lish javobgarlikni sezish kabi ahloqiy sifatlarni shakllantiradi. O'qituvchi kundalik hisobga olishning yakunini, ya'ni o'quvchilar bilimidagi yutuq va kamchiliklarni kundalik o'zlashtirishini, baxolashini sinf jurnali va o'zining kundalik daftariga yozib boradi. Mazkup baxolar keyinchalik choraklik va yarim yillik yakunlarni chiqarishga asos bo'ladi. Darsda kundalik tekshirishning asosiy ko'rinishi o'quvchilardan frontal va individual so'rashdir.

Demak, kundalik tekshirish jarayonida o'quvchilar bilimini hisobga olish bilan birga, ularga yangi bilimlar berish hamda ularda malaka va ko'nikmalar hosil qilish ham nazarda tutiladi. Mavzu bo'yicha tekshirish - dastur materialining bir bo'limi - bob, paragraf, katta mavzu yoki bir - biriga yaqin bo'lgan bir necha kichik mavzular

yuzasidan o'quvchilarning bilim sifati qandayligini aniqlashdir. Ona tili, matematika kabi fanlap bo'yicha o'quvchilar bilimini mavzu bo'yicha tekshirish nazorat ishi, yozma ish olish shaklida o'tkaziladi, mavzu bo'yicha tekshirishda ilgari surilgan mavzular yuzasidan olingan savollar va topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bilimlarni ana shunday tekshirish natijasida o'quvchilar bilimi har

tomonlama hisobga olinadi. Ularning bilimlarini qay darajada o'zlashtiri olganliklari aniqlanadi. Takroriy umumlashtiruvchi darslar mavzu bo'yicha tekshirishning zaruriy shaklidir. Unda o'tilgan mavzular bo'yicha xulosalar chiqariladi va bilimlar tizimga olinadi. Yakuniy tekshirish - da o'quvchilarning bir necha hafta, chorak, yarim yil, yillik va shuningdek bir necha yillik (to'qqiz yoki o'n birinchi sinfni tugatishda) bilimlari hisobga olinadi. Bunday tekshirishda ma'lum vaqtda o'zlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni hisobga olib ko'zda tutiladi. Masalan, kursning asosiy masalalarini esga tushirish, o'tilgan materialni qisqacha tavsif qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bunday tekshirishda o'quvchilar nimani takrorlash va qanday takrorlash haqida to'liq ma'lumot oladilar. Yakuniy tekshirishning vazifasi o'quvchilarning ma'lum davrlardagi bilimini esga olish, qayta tiklash va sistemaga solishdir. Yakuniy tekshirishda bilimlar mustahkamlanadi, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalar umumlashtiriladi. Bu tekshirishlar imtihosi tusini oladi. Tekshirishning bu turlari og'zaki ko'rinishda va yozma nazorat ishlarda amaliy mashg'ulotlarda. Maxsus topshiriqlarni bajarishda qo'llaniladi. Bu o'quvchilar
bilimlarning sifatini aqliy rivojini va ularning bundan keyingi o'qishga tayyorgarlik darajasini chuqur o'rganish imkonini beradi.

## BILIMLARNI TEKSHIRISHNING YANGI USULLARI

O'quv shartlarining eng muhimi vazifalaridln biri ta'lim sohasida bo'ladigan islohotlar asosida bozor iqtisodiyoti tizimida faoliyat ko'rsata oladigan, xususan jahon andozalariga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.
Mutaxassis tayyorlashda eng muhim bo'lgan jarayonlardan biri o'quvchilarni bilimini aniqlash va baholashdir, shu bois, o'quv shartlarida qo'llanilayotgan ko'p balli baholash (reyting) ma'lum mutaxassislar tayyorlashda sifat ko'rsatkichlari bo'yicha xalqaro mezonga o'tishni ta'minlashga qaratilganligidir.

«Reyting» so'zi ingliz tilida «baho» degan ma'noni anglatadi. O'quvchilar bilimini bunday baholash usuli bir qancha g'ap6 davlatlarida. Shu jumladan AKSh va Angliyada keng tarqalgan, uning mohiyati o'quvchiga uzluksiz bilim olish va olgan bilimi natijasini muttasil tekshirib turish imkoniyatini beradi, o'quvchilar bilimini nazorat qilish hamda baholashda reyting tizimiga o'tishdan maqsadi.

1. O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga asoslangan davlat siyosatini izchillik bilan amalga oshiridi.
2. O'quvchining o'zlashtirish darajasini aniqlashda haqqoniy, aniq va adolatli baholash.
3. Reyting tizimida har xil nazorat turlaridan keng foydalanish.
4. O'quvchi to'plagan ballari orqali ma'lum bir fan bo'yicha imtihon sinovda oladigan bahosini oldindan bilib olish va to'plagan bali o'zini qoniqtirmasa ko'rsatkichni yaxshilash uchun oldindan harakat qilishga undash
5. O'quvchilarning o'quv yili davomida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha nazoratlarning qachon, qanday turi o'tkazilishini bilishi va unga tayyorgarlik ko'rib borishini psixoligik jihatdan yo'naltirib borish:
6. O'quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligipi oshirish va xokazolzrdan iboratdir.

Reyting tizimi asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha o'quvchi o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichini ball bilan baholash yotadi. Har bir chorakdagi fanlardan to'plangan ballar yig'indisi o'quvchining kurs reytingini tashkil qiladi. Fanlar bo'yicha talabalarning o'zlashtirishini nazorat qilish 3 xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

1. Kundalik nazorat (kn) - 6u berilgan bilimning o'qyvchilar tomonidan qay daradajada o'zlashtirilayotganini muntazam ravishda nazorat qilinishidir, bunga o'qituvchi fanning xususiyatiga qarab dars jarajnida og'zaki so'rov, uy vazifalarini tekshirish, referat eg'ish, noan'anaviy dars o'qlari (seminar, anjuman musobaqa, har xil bellashuvlar va xG`f.) dan foydalanish. Amaliy mashg'ulotlar (misol va masallar echish, labaratoriya ishlarini bajarish didaktik materiallar bilan ishlash va mustaqil ishlar) yozma ishlar asosida o'quvchilar bilimining darajalarini aniqlaydi. Kundalik nazorat reyting tizimining eng muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi.

2. Oraliq nazorat (on) - bu mazkur fan bo'yicha o'tiladigan bir necha mavzularni, boblarni o'z ichiga olgan bo'lib, ayrim boblar, mavzular yig'indisi bo'yicha yozma ish, test sinovlari o'tkaziladi.

3. Yakuniy nazorat (yan) - bu o'quv rejasidagi fan uchun ajratilgan soatlar tugagach, butun o'tilgan mavzular bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun o'tkaziladi bu dastur mavzusi to'liq aks ettirilgan test sinovi yoki nazorat ishi shaklida o'tkaziladi, yuqorida qayd etilgan nazorat turlariga asoslangan reyting tizimini ishlab chiqish quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

1. Fan bo'yicha reyting tizimini joriy qilish tartibi fan uyushmalari tomonidan ishlab chiqiladi.

2. O'quvchilarning sinfdan sinfga o'tishi chorakni muvaffaqiyatli yakunlash uchun zarur bo'lgan umumiy ball minimumi o'quv yurti pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi va o'quvchilar e'tiboriga xavola qilinadi.

3. Bosqichlar bo'yicha nazoratning barcha turlari uchun ko'p balli shkala asosida ballarning tegishli hisob - kitob aniqlanishi lozim. Ja'mi 100 % deb hisoblansa, unga nisbatan % hisobida fan bo'yicha belgilangan maksimum ballning 50 - 55 % kundalik nazoratga. 25 -30 % oraliq nazoratga. 15 - 20 % yakuniy nazoratga beriladi.

4. Hap bir fan bo'yicha, nazorat ishlari o'tkazish miqdori va qachon o'tkazilish tartibi, shakli rejalashtiriladi hamda fan uyushmasi tomonidan tasdiqlanadi:

5. Fanlar bo'yicha KN. ON. YaN o'tkazish jadvali ishlab chiqilgandan keyin shu fan bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan maksimal miqdordagi ball belgilanadi va saralash ballari aniqlanadi. Shu asosda mazkur fan bo'yicha o'quv dasturi materiallarini o'zlashtirishning eng quyi chegarasi aniqlanadi. O'quvchilarga kursdan - kursga ko'chish, muvaffaqiyatli tahsil ko'rishlari uchun o'qish davomida qaysi fandan qancha ball to'plash kerakligi to'la tushuntirilishi lozim.

6. Reyting tizimini qo'llashning eng muhim shartlaridan biri o'quvchi jamg'argan ballaridan yana baho tizimiga o'tishdir. Ballarni baholarga aylantirishning yagona tizimiga rioya qilish lozim fan bo'yicha maksimal ballning 85 - 100 % oralig'ida to'plangan ballar «allo» 70 - 85 % oralig'ida to'plangan ballar «yaxshi» 55 - 70 % oralig'ida to'plangan ballar «o'rta» 55 % dan kam miqdordagi ballar esa qoniqarsiz

bahoga tenglashtiriladi. Shunday qilib, kundalik va oraliq yakuniy nazorat natijalari bo'yicha fan uchun belgilangan maksimal ballning 55 %dan ortiq to'plagan o'quvchi o'zlashtiruvchi hisoblanadi.

**Diagnostik tahlil**. Bilimdagi notekisliklarni aniqlash ularni to'ldirib va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'tarish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi. Diagostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- o'quvchilar o'zlashtirish darajasini diagnostikalash;
- bilimlardagi etishmovchiliklarning oldini olish;
- aniqlangan etishmovchiliklarni to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- maxsus topshiriqlar bajarish soatlarini belgilash;
- yakuniy diagnostik tahlil qilish;

diagnostika ta'lim texnologiyasining navbatdagi bos-ichi bo'lib, uning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Asosiy o'zlashtirishdagi kamchiliklar soatini aniqlash, har bir o'kuvchining bilim darajasini ani-lash, rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yo'li bilan ta'lim jarayonining natijasi kafolatganligini ta'minlaydi.

Test so'rovi natijalarini diagnostik tahlil qilish ikki muhim vazifani hal qiladi: 1) qaysi o'kuvchi qaysi o'quv birliklarida qiynaladi; 2) o'qituvchilar qaysi bilimlarni kengaytirishi lozimligini aniqlaydi.

| 5 - Mavzu | **TA'LIMNI TASHXIS ETISH VA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA** |
|---|---|

## 1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 30 - 60 nafar. |
|---|---|
| O'quv mashg'lotining shakli | Vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. O'quvchilar bilimini tashhis etishning mohiyati.<br>2. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari.<br>3.Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar.<br>4. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari.<br>5.O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari |

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** O'quvchilar bilimini tashhis etishning mohiyati. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari.Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini o'rganish.

| **Pedagogik vazivalar** | **O'quv faoliyatinig natijalari** |
|---|---|
| - Pedagogik diagnos tika fanining tutgan o'rnini, ko'rsatish;<br>- Pedagogik diagnostika fanining o'quvchilar bi limini tashhis etishning mohiyatini tushuntirish;<br>- Pedagogik diagnostika fanining ta'lim jarayo nida nazorat va hisobga olishning vazifalari<br>- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini o'rganish. | - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini aniqlash;<br>- Pedagogik diagnostika fanining o'quvchilar bilimini tashhis etishning mohiyatini tushunadilar<br>-Pedagogik diagnostika fanining ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari bilan tanishadilar;<br>- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini o'rganadilar |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster |
| **O'qitish vositalari** | Proyektor, tarqatma materiallar |
| **O'qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda ishlash |
| **O'qitish sharoitlari** | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya |

## 5.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Bosqichlar<br>Vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. Kirish (5 min.)** | 1.1. Mavzu maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.<br>1.2. Rejani ekranga chiqaradi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. E'tibor beradilar. |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)** | 2.1. Asosiy tushunchalar ni namoyish qiladi.<br>2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi. | 2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. |
| **3-bosqich. Asosiy (55 min.)** | 3.1. Quyidagi savol bilan murojat qiladi Ta'lim jara yonida nazorat va hisobga olishning vazifalari xaqida gapiring?<br>3.2. Ta'lim jarayonida na zorat va hisobga olishning vazifalarini tushunadilar(5.1(1,2)),(5.2)<br>3.3.Pedagogik diagnostika fanining ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish ning vazifalari tanishadi lar(5.3,5.4 ilova)<br>3.4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntiradi(5.5ilova) | 3.1. Gapiradilar.<br>3.2. Yozib oladilar.<br>3.3. Tushunchlarni mohiyatini anglaydilar.<br>3.4. O'rganadilar |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min.)** | 4.1. Mavzugaxhulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi. | 4.1. Eshitadilar.<br>4.2. Topshriqlarni yozib oladilar. |

5. 1.(1)


TASHXIS
Kechadigan barcha jarayonlarni oydinlash tirish
O'quvchilar bilimini tashxis etishning mohiyati
Didaktik jarayon
Natijalarni belgilash

5.1.(2).


TASHXIS
MAQSADI
O'quv jarayonining samaradorligini aniqlash
Baholash
Tahlil qilish

5.2.


Oquvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining qay darajada ekanligini
Nazorat va hisobga olish
To'g'ri tashkil etish
Ta'lim samaradorligi oshadi

5.3.


Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar
O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida teskari aloqani tarbiyalash
Pedagog tomonidan o'quv materialining o'zlashtirilishi haqida ob'ektiv axborot olinishi
Bilim olishdagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlash
O'quv mehnat hajmini aniqlash

5.4.


DTS ning bajarilishi nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi
Ta'limiy maqsad bajariladi
Ta'lim sohasidagi ijobiy natijalar yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi, ularda ko'tarinki ruh, ishonch va qiziqish paydo bo'ladi

5.5.


O'quvchilar ning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari
Joriy Nazorat
Oraliq nazorat
Yakuniy nazorat

# 5-MAVZU: TA'LIMNI TASHXIS ETISH VA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

Reja:

**1. O'quvchilar bilimini tashhis etishning mohiyati.**

**2. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari.**

**3.Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar.**

**4. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari.**

**5.O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari.**

1. O'quvchilar bilimini tashhis etishning mohiyati1. Ta'lim tashhisi mohiyati haqida gapirishdan oldin tashhisni umumiy yondashuv hamda tashhislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida qabul qilamiz. Tashhis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashhissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.Ta'lim tashhisida oqibatlar, erishilgan natijalar va ta'lim olganlik farqlanadi. Shuningdek, ta'lim olganlikni tashhislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirishda erishilgan daraja sifatida ham qaraladi. Didaktik tashhisning maqsadi o'quv jarayonini uning samaradorligi bilan bog'liq holda aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashhis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashhis natijalarini ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim samarasini ta'minlovchi jarayon va bosqichlarni aniqlaydi:




17 - чизма. Tashxislashning asosiy tarkibiy qismlari

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashhislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ularning fikrlaricha, bahoning:

1) ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini qat'iy belgilovchi - sifat ko'rsatkichi, yoki;
2) u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi, kamchiliklarini ko'rsatuvchi ko'rsatkich ekanligi aniq belgilanishi zarur.

Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'ektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi. Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim, Didaktik nazorat ta'limning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim.Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma

va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning murakkab shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashhislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega.

Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashhislash natijalari shaxsning yetuklik darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting - shaxsning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

2. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkbiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim. Nazorat tushunchasi ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ham ataladi. Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Tekshirish tizimidagi birinchi bosqich ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli.

Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bosqich har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashhislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o'rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi. Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bosqichi sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'zlashtirilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamlik darajasini tashhislash imkonini bermaydi. Tashhisning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo'llanilsagina ushbu tekshirish kutilgan samarani beradi.

Tizimning to'rtinchi bosqichi -o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi - kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashhislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi - tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bosqich ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir.

O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda mavjad bilim darajasi (sifati)ni tashhislashdir. Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholash (jarayon sifatida) va baho (natija sifatida) ham oladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining

o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda. Sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ma'lum ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin - 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmaslik muhim. Baholovchi son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega. Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi BqA/T yuz foiz nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B - o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A - amalda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi;

T - o'zlashtirish nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100 foiz - axborotni to'liq o'zlashtirish va 0 foiz - uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'dlumki, baholash funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho - pedagog ixtiyoridagi o'qish, ijodiy motivasiyani rag'batlantirish, shaxsga ta'sir ko'rsatish vositasi. Aynan xolis (ob'ektiv) baholash ta'sirida o'quvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi o'quvchilar o'quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni taqozo etadi.

Hisobga olish - bu ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib, xulosalash demak.O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

1) o'quv dasturi asosida mavzu va bulimni o'rganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarning faoliyati to'g'risida xulosa chiqarish;

3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;

4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi:




**18 - chizma. Nazorat qilish va hisobga olish vazifalari**

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining qanday darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi va o'qituvchining o'quv metod hamda usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

Ta'lim vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan

ma'lumotlarni bilish olishlariga imkon tug'iladi. Chunki guruhdagi boshqa o'quvchilar javob berayotgan o'quvchining fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yeilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi. Nazoratning tarbiyalash vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar har doim tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydi, ko'ngilochar o'yinlardan o'zlarini tiyishga kuch topadi, intizomga o'rganadi.

Shuningdek, tekshirish va baholash o'quvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustahil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin o'quvchining bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham o'quvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yogdashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga yo'naltirilmog'i lozim.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirish hamda his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

O'qituvchi mazkur vazifalardan xabardor bo'lish asosida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini hisobga olishni to'g'ri tashkil etadi.

3. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. O'quvchilarning ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan pedagog talablar (buni pedagog olim N.A.Sorokin ta'rifida berishni ma'qul deb topdik) ta'lim nazariyasi va amaliyotida quyidagicha belgilangan:

1) har bir o'quvchining o'quv faoliyatini nazorat qilishni talab etadigan, sinf yoki guruhning

o'quv ishi natijalari o'quvchining shaxsiy natijalarining o'rnini almashtirishga yo'l bermaydigan nazoratning individual tavsifi;

2) nazoratni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida: boshlang'ich idrok etishdan to bilimlarni amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida o'quvchilarning o'quv faoliyatlarining boshqa tomonlari bilan birgalikda olib borishning tizimliligi;

3) nazoratning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini hal etadigan, uni olib borishga o'quvchilarni qiziqtiradigan turli shakllari;

4) o'quv dasturining barcha qismlarini qamrab olgan, o'quvchilarning nazariy bilimlari, intellektual hamda amaliy ko'nikma va malakalarini tekshirishdan iborat nazoratning keng ko'lamliligi;

5) o'quvchilarni har jihatdan bilib olmasdan turib, o'qituvchining xato xulosalar chiqarish, sub'ektiv munosabatda bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, shuningdek, o'zlashtirish natijalarini baholashda baho mezonlariga qat'iy rioya qilishni talab etadigan nazoratning xolisligi (ob'ektivligi);

6) har bir fan, uning bo'limlarining maxsus xususiyatlari, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy
qobiliyatlarini hisobga olgan holda turli nazorat metodlarini tanlashning tabaqalashganligi;

7) muayyan sinf (guruh) o'quvchilarining o'quv ishlarini nazorat qilishda barcha o'qituvchilar tomonidan qo'yiladigan talablarning bir xil bo'lishi.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya qilish orqali nazoratning ishonchliligi ortadi va yoquv jarayonida o'z vazifalarini hal qilishga imkon yaratiladi.

4. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari. Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligini alohida uqtiradi:

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganligi nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchilarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan ta'lim muassasalari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi.

3. Ta'lim sohasida yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi, ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ham ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Ana shu vazifalardan kelib chiqib o'quvchilar o'quv faoliyatini hisobga olishning bir qator shakl va metodlari asoslangan.

Har bir fan bo'yicha o'quvchining o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash chorak yoki yarim yillik
davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

**Joriy nazorat** - bu o'rganilayotgan mavzularni o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi.

**Oraliq nazorat** - bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan (mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi) bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim bo'yicha o'quvchilarning bilimlarni aniqlash.

**Yakuniy nazorat** - bu nazorat chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan mavzular to'liq o'tib bo'lingach, o'tilgan mavzular bo'yicha yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. O'quvchilarning faoliyatini hisobga olish metodlari og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham atashadi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan

o'quvchilarga savollar beradi. Biroq, o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin. Ko'pgina fanlarda og'zaki tekshirish o'quvchilarning javoblarini yozma mashqlarni tashkil etish asosida to'ldirib boriladi. Masalan, o'quvchilarning "Qo'shma gaplar" mavzusini qanday o'zlashtirganliklarini tekshirishda ana shunday yo'l tutish mumkin. Ular o'z javoblarini isbotlash uchun misol keltiradilar.

Bu misollarni doskaga yozib, sintaktik va grammatik jihatdan tahlil qiladilar. Matematika, fizika va ximiyadan og'zaki tekshirish qoidaga muvofiq misol va toptiriqlarni amaliy ko'nikma va malakalar baholash maqsadidan kelib chiqib hal etiladi. Keng tarqalganligi va samarali ekanligiga qaramay o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda og'zaki tekshirish ayrim kamchiliklarga ham ega. Chunonchi, uni qo'llash jarayonida:

- nisbatan ko'p mehnat sarflanadi;
- dars mobaynida 3-4 nafar o'quvchinigina bilimini tekshirish mumkin.

Shu bois o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun turli shakllardan foydalaniladi.




**19 - chizma. Bilimlarni tekshirish va baholash shakllari**

Og'zaki frontal tekshirish o'quvchilardan og'zaki so'rash bo'lib, ular guruhga qaratilgan savollarga javob beradilar. Bunday tekshirishda javoblar qisqa bo'ladi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchilarni nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi, ammo o'quvchilarning nutqini o'stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so'rashda ko'zga tashlanmaydi. Ammo so'rashning bu

shaklida guruhdagi boshqa o'quvchilarning to'laqonli ishlashlariga erishish juda qiyin. Kombinasiyalangan (tezlashtirilgan) tekshirishda o'qituvchi bir necha o'quvchini bir vaqtda doskaga chaqiradi, biri og'zaki javob beradi, 3-4 nafar o'quvchi esa kartochkalar bo'yicha yozma ishni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo'lib, o'qituvchidan yetarlicha tajriba va diqqatlarini guruhdagi hamma o'quvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi.

Yozma tekshirish - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish topshiriq, ya'ni, insho yozish hamda turli nazorat va mustaqil ishlarni bajarishni uyda ham amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchining bajarilgan ish bilan tanishib chiqishi, uning sifatini tekshirishi uchun ko'p mehnat va vaqt sarflanadi.Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchining butun dars davomidagi barcha faoliyatlarini nazorat qilish tekshirishning maxsus turi bo'lib, u o'quvchining darsdagi ishtiroki uchun ball qo'yish bilan yakunlanadi. Bu o'quvchini doimo harakat qilishga va faollikka undaydi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikasiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Uning turli uslublari sifat tavsiflarini miqdoriy o'zgarishlarga aylantirishga yordam beradi.

Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv

dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar bilimini baholashning besh balli tizimining eskirganligi, zamon talablariga javob bera olmagani uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirishni taqozo etdi. Shu o'rinda "Qanday sabablarga ko'ra besh balli baholash mezoni o'zini oqlamadi?" degan savolga javob berish o'rinlidir:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'limni dekmokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Besh balli baholash tizimi qattiqqo'llik, o'qituvchining mustabidligi hamda uning ta'lim jarayonida yakka hukmronligini ta'minlashga xizmat qilib kelgan.

Demak, ushbu jarayonda talab va amaldagi holat bir-biriga muvofiq kelmaydi.

Ikkinchidan, baholash mezoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishga emas, aksincha, o'zaro faol hamkorlik, bir-birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

Uchinchidan, baholash mezoni faqatgina o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish uchungina emas, balki ta'limni tashhis etishning faol ko'makchisiga aylanishi zarur.

Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qo'yish tartibini bildirib, mohiyatan baholar o'rtasida yig'indisining o'rtacha arifmetik qiymati asosida choraklik (yillik) bahoni belgilashdan iborat.

"Reyting" inglizcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi inson faoliyatidagi ijobiy va salbiy sifatlarning doimiy ravishda o'zgarishib turishini anglatadi. Reyting tizimi o'quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli bo'lib,

uning yordamida o'quv fani ta'lim standartining barcha imkoniyatlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar sifatini baholash jarayonini ta'minlab beradi.

Reyting tizimida o'zlashtirish natijasi nazoratning ko'rsatilgan barcha shakllardan o'tish jarayonida to'plangan ballarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Har bir nazorat turi uchun 10 balldan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7, 5, 8, 7 ball qo'yilsa, o'quvchining chorak yoki yarim yillik uchun to'plagan bali 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u yetarlicha reyting ballini to'plamaguncha va barcha nazorat shaklidan o'tmagancha attestasiya qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan egallangan bilim o'rtasida tafovut kelib chiqishining oldini oladi.

Reyting tizimi yana bir qator afzalliklarga ega, chunonchi:

- ta'lim jarayonida baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish;
- o'quvchi bilimini eng adolatli mezonlar yordamida aniqlash;
- ta'limni standartlashtirish jarayoni uchun zarur imkoniyatlarni ochib berish;
- ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzularning to'laligicha o'zlashtirilishi;
- o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash intilish, erkin fikr yuritish, bilimlarni egallashga nisbatan izchil yondashuv yuzaga keladi;
- o'quvchilarda yomon baho olishga bo'lgan qo'rquv yo'qolib, uning o'rniga bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha aytganda, qo'rquv o'rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug'iladi, o'rganishga nisbatan qiziqish ortadi.

Biroq, bugungi kunda ham maktab amaliyotida besh balli baholash tizimidan foydalanilayotganligi bois pedagoglar mazkur tizimning rag'batlantiruvchi rolini oshirish yo'llarini izlamoqdalar. Bu borada bir necha usullardan foydalanishmoqda. Xususan:

1) baholarni qo'shish va ayrish alomatlari bilan ifodalash. Sinf jurnallarini yuritishning amaldagi qoidalari ifodaviy belgili baholarni qo'llashga imkon bermaydi. Shu bois pedagog murosa qilib, sinf jurnaliga aniq baholarni qo'yadi, plyus-minuslarni esa shaxsiy yon daftarchasida qayd etib boradi;

2) raqamni balli baho (qo'shimcha baho) bilan to'ldirishi. Bu usul instruktiv ta'qiqlarga ega
emas, biroq pedagoglar tomonidan kam qo'llaniladi, zero, bu usul dars davomida shusiz ham tanqisligi seziladigan vaqtni ko'proq sarflashni talab etadi;

3) o'qituvchining kundalik daftarga baho qo'yish bilan birga ota-onalar uchun qaydlarni yozishi. Bu usul o'quvchining oila oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga asoslanadi. Quyidagi holat inobatga olinmasa, bunda biror g'ayri oddiylik yo'q. Kundalikda qayd etilgan yozuvlar mazmuni bilan tanishish ularning asosan salbiy mazmunda ekanligini ko'rsatadi. Ma'lumki, salbiy fikrlar o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni barbod qiladi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, 5-6-sinf o'quvchilarida ta'lim olishga bo'lgan rag'batning pasayishini ta'minlovchi omil - aynan kundalikdagi salbiy mazmundagi qaydlardir.

4) kommunikativ motiv - tengdoshlarining munosabati, fikri. O'quvchilar tengdoshlarining munosabati, fikrlariga nisbatan e'tiborsiz bo'la olmaydilar. Pedagog ana omildan foydalana olishi zarur, biroq uni suiste'mol qilish yaramaydi, zero, bunday yondashuv ham o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni susaytiradi. XIX-XX asr boshlarida gimnaziyalarda shunday qoida ustun bo'lgan: o'quvchini jamoa oldida maqtash mumkin, lekin koyish mumkin emas. Bugun ham ta'lim amaliyotida ana shu qoidaga amal qilish foydadan holi emas.

5) kommunikativ ta'sirni kuchaytirish, bu o'rinda o'quvchilarni o'z sinfdoshlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini his qilish, unga yordam ko'rsatishga o'rgatishdan iborat;

6) o'zlashtirish ekranlaridan foydalanish. Sinfda ekran osib qo'yilib, unda o'quvchilarning barcha baho ko'rsatkichlari qayd etib boriladi. Buning kamchiligi a'lochilarda kibrlanish, past o'zlashtiruvchilarda esa befarqlik yuzaga keladi. Bunday holatning oldini olish uchun o'quvchilarni axborotni to'g'ri qabul qilishga o'rgatib borish zarur.

7) o'z-o'zi bilan musobaqa tashkil etish, har hafta oxirida o'quvchi o'z faolitini tahlil etadi. Yakunlangan haftada o'zlashtirish pasaysa, garchi u a'lochi bo'lib qolaversa ham o'quvchi musobaqada boy beradi. Aksincha, kuchsiz o'quvchi yakunlangan haftada samarali ishlasa, g'olib chiqqan hisoblanadi. O'z-o'zi bilan

musobaqada barcha o'quvchilar teng sharoitda bo'ladilar, ya'ni, past o'zlashtiruvchi o'quvchi bitta past bahoni kam olsa, yutgan, a'lochi o'quvchi esa bitta a'lo bahoni kam olgan bo'lsa yutqazadi. Anglanganidek, bu usul o'zlashtirish uchun emas, balki o'zlashtirishni yaxshilash uchun xizmat qiladi.

| 6 - Mavzu | PEDAGOGIK ME'YORDAN OG'ISHLIKNING XUSUSIYATI |
|---|---|

## 6.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 30 - 60 nafar. |
|---|---|
| O'quv mashg'lotining shakli | Vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Pedagogik me'yordan chetga chiqish<br>2.Me'yordan chiqish tiplari va unga xarakteristika<br>3.Bolalarda me'yordan og'ish (deviasiya) holatlari.<br>4.Deviasiya tiplari. O'smirlarda deviantik xulqning sabablari |

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Pedagogik me'yordan chetga chiqish.Me'yordan chiqish tiplari va unga xarakteristika.Bolalarda me'yordan og'ish (deviasiya) holatlari. Deviasiya tiplari. O'smirlarda deviantik xulqning sabablarini o'rganish.

| **Pedagogik vazivalar** | **O'quv faoliyatinig natijalari** |
|---|---|
| - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini, ko'rsatish;<br>- Pedagogik me'yordan chetga chiqishni tushuntirish;<br>- Pedagogik diagnostika fanida bolalarda me'yordan og'ish (deviasiya) holatlarini tushuntirish<br>Deviasiya tiplari. O'smirlarda deviantik xulqning sabablarini o'rgatish | - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini aniqlash;<br>- Pedagogik diagnostika fanining pedagogik me'yordan chetga chiqishni tushunadilar<br>- Pedagogik diagnostika fanining bolalarda me'yordan og'ish (deviasiya) holatlarini bilan tanishadilar;<br>- Deviasiya tiplari. O'smirlarda deviantik xulqning sabablarini o'rganadilar. |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster |
| **O'qitish vositalari** | Proyektor, tarqatma materiallar |
| **O'qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda ishlash |
| **O'qitish sharoitlari** | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya |

## 6.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

| Bosqichlar Vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| **1-bosqich. Kirish (5 min.)** | 1.1. Mavzu maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.<br>1.2. Rejani ekranga chiqaradi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. E'tibor beradilar. |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)** | 2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi.<br>2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi. | 2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. |
| **3-bosqich. Asosiy (55 min.)** | 3.1. Quyidagi savol bilan murojat qiladi Me'yordan og'ish tiplari haqida gapiring?<br>3.2. Pedagogik me'yordan chetga chiqishni tushuntirish;(6.1-2 ilova)<br>3.3. Pedagogik diagnos tika fanining bolalarda me'yordan og'ish (deviasiya) holatlarini tushuntirish (6.3-4 ilova)<br>3.4.Deviasiya tiplari. O'smirlarda deviantik xulqning sabablarini o'rganish()6.5 ilova | 3.1. Gapiradilar.<br>3.2. Yozib oladilar.<br>3.3. Tushunchlarni mohiyatini anglaydilar.<br>3.4. O'rganadilar |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min.)** | 4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi. | 4.1. Eshitadilar.<br>4.2. Topshriqlarni yozib oladilar. |

6.1.


PSIXIK
JISMONIY
Rivojlanish
IJTIMOIY
Nuqsoni bor insonlar

6.2.




6.3


ME’YOR
MAZMUN
MOHIYAT
GERMINOLOGIK
Yagona irodaga
ega emas

6.4.


Yosh ko’rsatkichi davrida o’tish bosqichida gi davr
Yetuk inson bo’lib shakllanadi gan o’ziga hos jarayon davriga o’tiladi
Bu o’sish bosqichida inson bolalikdan kattalikka o’tish davri
Bola xarakteri


Diagnostika tiplari
Me'yoriy hulq
O'smirlarda deviant hulq-atvor sabablari
Ijtimoiy omil
Iqtisodiy omil
Ahloqiy – ma'naviy omil
O'smirlarda deviant hulq-atvorning oldini olishda asosiy yondashuv
Axborotli yondashuv
Jismoniy profilaktik yondashuv
Tibbiy biologik yondashuv
Ijtimoiy pedagogik yondashuv
Sanksiyalarni qo'llash

# 6-MAVZU: PEDAGOGIK ME’YORDAN OG’ISHLIKNING XUSUSIYATI

1. **Pedagogik me’yordan chetga chiqish**
2. **Me’yordan chiqish tiplari va unga xarakteristika**
3. **Bolalarda me’yordan og’ish (deviasiya) holatlari.**
4. **Deviasiya tiplari. O’smirlarda deviantik xulqning sabablari.**

**Asosiy tushunchalar:** Anomal bolalar, iqtidorlilik, ijtimoiy me’yorlar, rivojlanosh da og’ishlik bo’lgan bola, nogiron bola, deviant xulq, delikvent xulq, qarovsizlik.

Rivojlanishning qaysi bosqichida bo’lishian qat’iy nazar, har qanday jamiyatda, u eng jamiyatda, u eng rivojlangan, farovon, iqtisodiy rivojlangan mamlakat bo’ladimi yoki rivojlanayotgan jamiyatli ularda o’zlariga maxsus alohida e’tibor talab etadigan insonlar bo’ladi. Bunday insonlar biror bir jihatdan: jismoniy, psixik yoki ijtimoiy rivojlanishdan nuqsoni bor insonlardir. Bunday insonlar jamiyat va davlatda doimo alohida guruhga mansub bo’lib ajralib turadi. Ularga doimo maxsus munosabatda bo’lib kelingan. Biroq bu toifadagi insonlarga jamiyatning tarixiy-madaniy sharoitiga muvofiq turli davrlarda turlicha munosabatda bo’lib kelingan. Masalan, Qadimgi Spartada jismoniy, psixik nosog’lom bolalarni spartachilar qoyalardan uloqtirganlar. Bunday toifadagi insonlarga boshqa bir jamiyatda esa insonparvarlik nuqtai nazardan yondashganlar, ular mehribonlik va g’amxo’rlik ko’rsatganlar.

AQSh va Yevropaning mamlakatlarida hozirgi davrda nosog’lom, jismoniy kamchilikli bolalarga barcha teng huquqli insonlar qatori munosabatda bo’ladilar. Ularga jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida qarab, bu insonlarni muammoli yoki imkoniyati cheklangan shaxs sifatia alohida maxsus e’tibor beriladi.

“Muammoli inson” tushunchasi AQSha keng qo’lianilsa, Yevropa mamlakatlarida “imkoniyati cheklangan inson” iborasi ko’p ishlatiladi.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan insonlarga munosabatda, eng avvalo sog'liq masalasi dolzarb masala hisoblanadi. Chunki bunday insonlar soni dunyo miqyosida o'sib bormoqda. YUNESKOning istiqbol bo'yicha ma'lumotlarida yaqin vaqtda jahon hamjamiyati bu ko'rsatkichni o'zgartira olmaydi. Sog'lom muhit doimo insonlar ongida o'z chegarasiga ega bo'lib, chegaradan tashqi bo'lganlar "nome'yoriy", "potologik" deb belgilanadi. Amaliyotda inson anglagan yoki anglamagan holda o'zgalarni belgilariga muvofiq layoqatli yoki layoqatsiz deb baholaydi.

Me'yor tushunchasi tibbiyotda, psixologiya, pedagogika, sosiologiya va boshqa fanlarda keng qo'llanilib kelinadi. Bu tushuncha aniq va yaxlit, yagona, ta'rif berishga bo'lgan intilash muvaffaqiyatsizlikbilan yakunlangan. Masalan, faqatgina tibbiyotda olimlar 200ga yaqin ta'rif berganlar. "Me'yor" tushunchsi ifodalab berishning murakkabligi shundaki, u nafaqat terminologik, balki mazmun mohiyat jihatidan ham yagona ifodaga ega emas. Masalan, axloqiy me'yorlar doimo bir xil, hamma uchun deb belgilana olmaydi. Shu sababli ham ular birinchidan, milliy o'ziga xoslik bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan qayta-qayta o'zgarib turadilar. AQShda II jahon urushidan so'ng 2-3 o'n yiliklar mobaynida chekish odatiy "me'yor" hisoblangan bo'lib, unga jamiyatda bee'tibor bo'lganlar, hozirda, jamiyat bu sog'liq uchun zararli odatga qarshi turgan bir vaqtda, chekishga axmoqona xulq belgisi sifatida munosabatda bo'ladilar. Aslida qanchalik jamiyat demokratik tuzumga asoslangan bo'lsa, shunchalik shaxsning nostandart shakldagi xususiyatlariga chidamlimunosabatda bo'linadi, agar totalitar rejimga asoslangan bo'lsa, inson xulqini qattiq chegara doirasiga oladi, mabodo xulqiy og'ishlik xolatlariga yo'l qo'yilsa, ular rahmsizlik bilan jazolanadilar. Shuni unutmaslik loimki, me'yor bu shunday g'oyaviy hosilaki, unda ob'ektiv borliq (reallik) shartli ravishda, o'rtacha statistic ko'rsatkich bo'yicha, real haqiqat tavsiflanadi, biroq unda mavjud holatlar ifodalanmaydi.

Tibbiyot, psixologiya, sosiologiyada me'yorning o'z ko'rsatkichlari parametr (o'lchami), tavsifnomalari mavjud. Me'yorga muvofiq bo'lmagan bo'lmagan holatlar barchasi boshqa so'z "me'yordan og'ishlik" deb yuritiladi.

Ijtimoiy pedagogika “me’yor” va “me’yordan og’ishlik” tushunchalari juda muhimdir. Ular bolaning ijtimoiy xulq – atvori rivojlanish jarayonini xarakterlash uchun qo’llaniladi. Xulqiy og’ishlik negaiv va pozitiv xarakterga ega bo’lishi mumkin. Masalan, me’yordan xulqiy og’ishlik xolati bola rivojlanishida ham aqliy norasolik va qobiliyatlilik bo’lib ifodalanishi mumkin.

Bola xulq-atvoridagi bunday negativ xulqiy og’ishlik jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar sifatida insonning (nafaqat inson, balki jamiyatning) ijtimoiy shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Xulq atvordagi pozitiv og’ishlikka ijtimoiy ijodning barcha shakllari taalluqli bo’lib, ular: iqtisodiy tadbirkorlik, ilmiy vabadiiy ijodkorlik va boshqaalr, aksincha eski me’yorlar o’rniga almashinuvi ijtimoiy tuzim rivojlanishiga hizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

Me’yordan og’ishlik tiplari.

Me’yordan og’ishlikni shartli ravishda 4 guruhga bo’lish mumkin:

1. Jismoniy
2. Psixik
3. Pedagogik
4. Ijtiomoiy

***Me’yordan jismoniy og’ishlik*** insonning sog’lig’i bilan bog’liq bo’lib, tibbiy ko’rsatkichlar orqali belgilanadi. U bolalarning yosh ko’rsatkichlari va jinsi bilan (og’irlik, bo’y uzunligi, ko’krak kengligi va boshqalar) ifodalanadi. Ular bolaning sog’lig’ini xarakterlaydi. Aslida bular ideal ko’rsatkichlar bo’lib, bunday ko’rsatkichlarga to’la muvofiq keladigan bolani topish qiyin bo’lsa kerak.

Jismoniy jihatdan me’yordan og’ishgan bolalarni ijtimoiylashtirish alohida qiyinchilik bilan amalgam oshirilib, maxsus ishlarni talab etadi.

Sog’lig’I jihatdan me’yordan og’ishganlik biror kasallik asorati yoki avloddan-avlodga o’tuvchi omillar ba’zan tashqi vaziyat orqali yuzaga kelishi mumkin. Masalan, og’ir ekologik vaziyat; oziq-ovqat; ichimlik suvining ifloslanishi, sifatsizligi; oilaning umumiy yashash sharoitining og’irlashishi va boshqalar. Sog’lig’I va o’sishida me’yordan og’ishlik bo’lgan insonlatning ko’pgina toifalari

mavjud. 1980 yili jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Britaniyaning imkoniyati cheklangan shaxslar uchunuch bo'g'inli shkalasini qabul qildi.

1 Xastalik: - inson sog'lig'idagi har qanday yo'qotish, yoki jismoniy funksiya anatolik tuzilmasi elementlari, faolkiyatidagi biror-bir qiyinchilikning aniqlanishidir.

2 Cheklangan imkoniyat – inson uchu me'yordagidek hisoblanadigan har qanday cheklanish yoki o'z faoliyatining yo'qolishi (nuqsonning ko'pligi yoki asorati) yoki inson faoloiyati doirasidagi har qanday cheklanishlar.

3 Layoqatsizlik (nogironlik) – inson sog'lig'idagi nuqsonlar asorati yoki cheklangan imkoniyat, me'yoriy qaysidir rolning bajarilishiga to'siq bo'lgan, yosh ko'rsatkichlari, jinsiy yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqadigan holat.

G'arbiy davlatlarda "Sog'lig'ida imkoniyati cheklangan shaxslar" tushunchasi qabul qilingan. O'zbekistonda ham bu tushuncha kiritilib, unga jismoniy va psixik kamchiligi bo'lgan bolalar taalluqlidir. Bunday bolalarning sog'lig'idagi nuqsonlari ularning standartdagi ta'lim olishlarida to'siqlik qiladi, shu sababli ta'lim olishda maxsus sharoitlar yaratilishini talab etadi.

Shuningdek "nuqsonli" tushunchasi kiritilgan bo'lib, ular jismoniy, psixik og'ir va murakkab kabi turlarga ajratilgan.

***Me'yordan psixik og'ishlik*** eng avvalo bolaning aqliy rivojlanishi uning psixik nuqsonlari bilan bog'liq. Bu guruhga eng avvalo psixik rivojlanishda to'xtalish (ZPR) bo'lgan bolalar va aqliy norasolar yoki oligofreniya (yunon tilidan oligis kichik va phren-aql) lar kiradi. Bu psixik og'ishlikning eng so'nggi shakli bo'lib autism (yunon tilidan, aytos sam, o'zi)- psixikaning holati, muloqotga ehtiyoji yo'qligi, odamoviligi bilan harakterlanadi va (o'zini-o'zi o'ldirish) suiqasdga moil bo'ladi.

Me'yordan psixik og'ishgan bolallrnign alohida guruhiga iqtidorlilar kiradi. Bu bolaga muvaffaqiyatga erishishni ta'minlovchi, biron-bir faoliyatni bajarishda, yutuqlarga erishuvida muhim bo'lgan bolalar iste'dodining o'ziga xos turlaridir. Hozirgi davrda bolalrdagi iste'dodni ulardagi musiqaga, san'atga, tasviriy san'atga, sport, aqliy qobiliyatlarini ertaroq aniqlovchi ajoyib metodikalar ishlab chiqilgan. Bu metodikalarbolalar qobiliyatlarini shakllantirishga ham hizmat qiladi.

***Pedagogik me'yordan og'ishlik.*** Bu shunday tushunchaki, hozircha pedagogika juda kam qo'llaniladi. Pedagogik me'yorlarda eng avvalo standartlar ko'zda tutiladi. Ular ta'lim darajalarini belgilab beradi.ta'limni egallaganlik yoki egallay olmaganlik me'yordan og'ish me'yorlari haqida firk yuritish mumkin. Pedagogik me'yorlar bo'lib mamlakatda qabul qilingan umumiy ta'lim standartlar hisoblanadi. Bu standartlarga muvofiq darajadagi ta'limni o'zlashtirish lozim. Boshlang'ich ta'limni egallash, o'rta ma'lumot (9-sinf)ni olishi va o'rta maxsus yoki kasb ta'limini olgan bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi "kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997) ga muvofiq umumiy o'rta ta'lim (1997) hamma uchu majburiydir. Shu baza asosida mustaqil ta'limsifatida majbiriy bo'lgan o'rta maxsus yoki kasb ta'limi (o'qish muddati 3 yil) davomida amalga oshiriladi.

Biroq o'rta ma'lumotni olmagan bolalar ham bor. O'zi mustaqil kasb ta'limi faoliyati turlarini egallay olmaydigan bolalar ham uchrab turadi. Bunday bolalarning o'qishga xoxishi yo'qligi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasb faoliyati bilan shug'ullana olmasligi kabi xususiyatlari birlashtiradi. Shunday holatlardan kasb xususiyatlari birlashtiradi. Shunday holatlardan kasb ta'limiga ega bo'lmagan bolalr kelib chiqadi. Bu me'yoradn og'ishganlikni bartaraf etishda mutaxassisning ijtimoiy-pedagogik yordami zarur bo'ladi.

***Ijtimoiy me'yordan og'ishganlik*** ijtimoiy me'yorlar" tushunchasi bilan bog'liq. Ijtimoiy me'yorlar – bu jamiyatning u yoki bu davrida, bosqichida maxsus o'rnatilgan xulq-atvorga oid qoidalar, hatti-harakat namunalari yoki yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan (ruxsat etiladigan yoki majburiy) qoidalardir.

Umumiy qabul qilingan xulq-atvorga oid qoidalar o'z tarixiy rivojlanish yo'liga ega. Ular qadimgi davrlardan ma'lumdir. Jamiyat doimo o'zini saqlab qolishga harakat qilgan. Shu maqsadda insonlar o'ryasidagi o'zaro munosabatlarda turli ijtimoiy cheklanishlar: miflar, tabu(ma'n qilish), an'analar, diniy dogmalar (aqidalar) kiritilgan.

Insoniyat jamiyati doimo murakkablashib va takomillashib brogan. Vaqt o'tishi bilan yanada mustahkamroq xuquqiy axloqiy me'yorlar vujudga kelib, insonlar xulq-atvoriga bo'lgan munosabatda u yoki bu jamiyatda qabul qilingan

axloq va huquqiy me’yordan og’ish holatlari shakllanishiga aqrshi me’yorlar yuzaga keldi. Ijtimoiy me’yorlar ikkita katta guruhga bo’linadi:

1. Universal me’yorlar; jamiyatda har bir insonga taalluqli me’yorlar.

2. Xususiy me’yorlar; insonlarni alohida belgilangan kasbiy faoliyatlari sohalari yoki insonlar hayotiy faoliyatlari (masalan, shifokor, pedagog, aka, do’st va boshqa)ga taalluqli me’yorlar.

Ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish insonning ehtiyoji va odatlariga aylanishi zarur. Agar bola ijtimoiy me’yorlar va jamiyat qadriyatlarini o’zlashtirmagan bo’lsa uni xulqiy og’ishgan bola deb ataydilar.

Xulqiy og’ishgan bolalar muammosi sosiologiya, psixologiya, va pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan ishlab chiqilgan.

Xulqiy og’ishganlikning turlariga bolalar alkogolizmi, toksikonomiya, giyohvandlik, buzuqlik, qarovsizlik, nazoratsizlik,daydilik, jinoyatchilik, xuquqbuzarlik va boshqalar kiradi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda bu toifadagi bolalarni turlicha atamalar bilan beradilar: “tarbiyasi og’ir”, “og’ir xulqli”, “deviant bola”, “xulqi og’ishgan”, “asosial xulqli bola”. Ijtimoiy rivojlanishda xulqiy og’ishgan bolalar orasiga yana shunday toifadagilar: Ota-ona qaramog’isiz qolgan bolalar ham kiradi. Bunday bolalar-yetimlar va “ijtimoiy yetimlar”dir. Ular Biologik ota-onalari bo’la turib, turli vaziyat sababli birga yashmaydilar. “Ijtimoiy maydondan chetlatilgan” bolalarni jamiyatga qaytarish uchun ularga yordam berish zarur. Shu sababli ijtimoiy pedagogning bunday bolalar bilan olib boradigan ishlari, bir tomondan, xulqiy og’ishganlikning oldini olish profilaktika ishlari, jamiyatda qabul qilingan me’yor va qoidalarning buzilish holatlarida ogohlantirish, boshqa tomondan, xulqi og’ishgan bolalrni reabilitasiya qilish ishlarini bajarish lozim.

*O’smirlik yoshida deviasiya (me’yordan og’ish) holatlari. Deviasiya tiplari*

O’smirlik davrini o’tish bosqichi deb ataydilar. Bolalr yosh ko’rsatkichlari davrida o’tish bosqichi eng qiyin murakkab davrdir. Bu davrni yana shu sababli ham o’tish davri deb hisoblaydilarki, bu o’sish bosqichida inson bolalikdan kattalik davriga, bola xarakteridan, yetuk inson bo’lib shakllanadigan bir, o’ziga xos jarayonlar davriga o’tiladi.

O’smirlik yoshida o’smirning yahlit hayoti va faoliyati jiddiy o’zgaradi va uning psixikasi qayta shakllanishiga olib keladi, o’z tengdoshalri bilan o’zaro faoliyatda, munosabatlarning yangi shakllari vujudga keladi. O’smirning jamiyatdagi vaziyati, holati almashidi unga kattalardan yoqoriroq talablar qo’ya boshlaydilar. Bu yosh davrida jinsiy ytilish faolashadi biroq ijtimoiy shakilanish orqada qoladi. Bu esa jinsiy tarbiyada ijtimoiy-psihologik muomolarni vujudga keltiradi. O’smirlik yoshida bolani o’z –o’zini anglashga ihtiyoj paydo bo’ladi. Men kimman!savoliga javob berish uni tez-tez bezovta qiladi. Uni o’z –o’ziga qiziqish paydo bo’ladi. U yoki bu faktlarga unda shahshiy qarash, mulahaza yoritish, o’z bahosini berish kabi hususiyatlar shakilanadi. Vaqtinchalik oila va maktabdan psihologik uzoqlanish holatlari bo’lib turadi.O’smir shahsning shakilanishida tengdoshlarning tasiri kuchaygandak bo’ladi. Ko’pincha o’smir haqiqiy rasmiy jamoa va norasmiy guruh bilan muloqot qilishning qay biri afzal ekanligi to’g’risidagi tanlov oldida turadi. O’smir o’zining erkin sezadigan, uni hurmat qilaladigan insonlar bo’lgan bu muhitni ko’proq yaxshi ko’radi.

Bunday muhit va jamoaga sport seksiyalari va texnikaga oid to’garaklar bo’lishi yoki o’smirlar yig’ilib muloqot qiladigan, chekadigan va ichadigan va hokazo, yerto’lalar ham bo’lishi mumkin. Bu yoshda ayrim o’smirlarning kattalar ayniqsa, ota-onalari bilan muomalali vaziyatda bo’ladilar. Ota-onalar ularga, yosh bolalarga, go’dak, g’amxo’rlik qilgandek munosaabtda bo’lishni o’smir bu sharoitdan chiqib ketishga intiladi. Shu sababli kattalar bilan o’zaro munosabatlar janjalli vaziyatlar ko’payadi. O’smirda kattalik hissi shakllanadi. Bu yoshda o’smir mustaqil, erkin bo’lishga harakat qiladi, kattalarning “o’rgatish”lariga qarshi e’tiroz paydo bo’ladi. O’smir bu yoshda kumir, (ideal, havas qiladigan insonni) ya’ni film qahramonlari, kuchli katta yoshadagi inson, ko’rsatuv qahramoni mashxur sportchi va boshqalarga taqlid qilib: unign tashqi qiyofasi, xulq-atvoriga o’xshashlik uchun harakat qilish holatlari ko’p uchraydi. Tashqi qiyofa o’smir uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ajoyib soch turmagi, ba’zan ikki yoki uch ziraklar, yirtiq jinsi, juda yorqin rangdagi kosmetika va boshqa vositalar o’smirga o’zinign boshqalardan ajralib turishiga imkon beradi hamda bolalar guruhlarida o’zini tan olishlariga harakat qiladi. Shu tariqa o’smirlik yoshida

ajralib turadigan xarakter xususiyatlari haqida quyidagilarni aytish mumkin: hissiy noyetuklik o'z shaxsiy xulq-atvorini yetarli darajada qila olmaslik, o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va istaklarini taqqoslay olmasligi, yuqori ta'sirchanligi, o'zini tan olishalriga bo'lgan istaklari va kattalar kabi o'zini tutish. O'smklir – bu yetarli darajada yetilmagan va yetuk aqlga ega bo'lmagan ijtimoiy inson. Bu bosqich bolalik va o'spirinlikning chegarasidir. Katta deb hisoblanishi uchun yetarli darajada rivojlanmagan, biroq shu bilan bir vaqtda atrofdagilar bilan ongli ravishda muloqotga kirisha oladigan hamda o'z xulq-atvori va harakatlari jamiyat me'yor va qoidalariga javob berishda katta e'tibor talab etadigan bosqich o'smir shaxsidir.

Qonun bu yoshdagi bolalarni voyaga yetmagan, biroq o'z xulq-atvori va hatti-harakatlariga axloqiy hamda xuquqiy jihatdan mas'uliyatli bo'lishga layoqatli deb hisoblaydi. Shu sababli o'smirlar uchun o'z hatti-harakati va cheklangan xuquqiy javobgarlik o'rnatilgan.

**Deviasiya tiplari (me'yordan og'ish).**

Jamiyatda qabul qilingan qoida va xulq-atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smirlar og'ir tarbiyalilar deb ataladi.

Og'ir tarbiyali o'smir jamiyatda o'rnatilgan qoida va me'yorlarga rioya qilmaydi. Bunday holat ilmda deviasiya deyiladi. (lotin tilida deviatto-og'ishlik). Masalan, fizikada kompas magnit strelkasining, biologiyada organozm rivojlanishida og'ishlik holatlari uchraydi. Deviasiya og'ishlikning inson va bir tomondan uni o'rab turgan atrof-muhitga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasidir. O'zgaruvchanlik ijtimoiy muhitda inson xulq-atvori bilan bog'liq. Ilgari aytib o'tilganidek xalq me'yoridek yoki og'ishgan bo'lishi mumkin

*Me'yoriy xulq*. o'smirning rivojlanishidagi ehtiyojlari va imkoniyatlari, uning ijtimoiylashtiruviga to'la javob beruvchi, unga adekvat[1] monand qiluvchi mikrososium bilan unign o'zaro faoliyatidir.

Agar bolaning atrofidagi muhit o'smirni u yoki bu xususiyatlari, unign xulq-atvoriga doimo (yoki deyarli doim) o'z vaqtida va adekvat (monand) bo'lsa, o'smirda xulq-atvor me'yoriy bo'ladi. Bu fikrdan xulqi og'ishganlikning tavsifi kelib chiqadi, biroq bolaning mikrososium bilan o'zaro faoliyati sifatida uning

---

[1] Adekvat (lotincha tenlashtirilgan, teng, monand, to'la muvofiq keluvchi) mos kelish.

rivojlanishini buzuvchi va ijtimoiylashuvida, yuzaga keluvchi xulqi, jamiyatda o’rnatilgan axloqiy hamda xuquqiy me’yorlarga qarshi turadi. Xulqiy og’ishganlik ijtimoiy dezodaptasiyani (bola uchun ijtimoiy ahamiyatli sifatlar, ya’ni ijtimoiy muhit sharoitlariga moslashishga to’siqlik qiladigan hodisa ko’rinislari biridir.)

Bolalik - o’smirlik dezodaptasiyada quyidagi patologiyalar otasdig’ini topgan: Maktab yoshidagi bolalr maktabga bormaydilar, yetim bolalr, ijtimoiy yetimlar; giyohvandlik va zaharli (toksinli) vositalarna qabul qiluvchi o’smirlar; jinsiy axloqsiz o’smirlar; xuquqbuzarlik faoliyatlariga berilgan o’smirlar. Deviasiyaning tarkibiga deviantlik, delikvent va criminal xulq-atvorlilar kiradi.

Deviant xulq-atvor – xulqiy og’ishlikning bir turi bo’lib, o’smirning yoshiga muvofiq bo’lmagan ijtimoiy xulq-atvor me’yor va qoidalarning buzilishi bilan bog’liq bo’lgan mikrososium munasabatlar (oilaviy, maktabdagi) va kichik jinsiy yosh ijtimoiy guruhlari uchun xarakterli bo’ladi. Ya’ni xulq-atvorning bu tipini intizomsizlik deb atash mumkin. Deviant xulq-atvor ko’rinishlariga o’smirning namoyishkorlik, agressivlik, o’ziga erk berish, o’qish va mehnat faoliyatidan tizimli, muntazam og’shlik, uydan ketib qolish, daydilik, ichkilikbozlikka berilish, alkogolizmga berilish, giyohvandlik va u bilan bog’liq assosial faoliyatlar; jinsiy xarakterdagi jamiyatga qarshi faoliyatlar.

Delikvent xulq-atvor deviantlikdan farqli ravishda bolalr va o’smirlarning assosial xulq-atvori bilan xarakterlanadi. Bu xulqiy harakatlarda xuquqiy me’yorlarni bola buzib o’tsa, biroq xuquqiy, jinoiy javovgarlikka tortilmaydi. Sababi cheklangan ijtimoiy xavfli yoki bola jinoiy javobgarlikka tortilish yoshiga yetmagan hisoblanadi. Delikvent xulq-atvorda: asosan inson shaxsiga qarshi, agressiv – zo’ravonlik xulqi, haqorat, janjalkashlik; o’t qo’yish, sadistlik harakatlari ajrali turadi. Delikvent (lotin tilidan delicvent-xuquqbuzar) – xilqiy og’ishgan sub’yekt, o’z harakatlarida jinsiy jazolanadigan faoliyatlarni amalga oshiradi.

-g’arazli xulq-atvor, o’zida mayday o’g’rilik, bosqinchilik, talonchilik, avtotransportlarni o’g’irlash va boshqalarni amalgam oshirib, moddiy manfaat ko’rishning ilinjida mulkiy tajovuz qilishdan iborat;

-giyohvand moddalarni tarqatish va sotish.

Kriminal (jinoiy) xulq-atvor (lotincha jinoyatchilik) xuquqbuzarlik harakati bo'lib, jinoiy javobgarlik yoshiga yetguncha, jinoiy ish ochishda asos bo;lib hizmat qiluvchi va jinoyat kodeksining belgilangan moddalari bolan asoslanadigan xulq-atvor.

*O'smirlarda deviant xulq-atvor sabablari.* Inson taraqqiyoti ko'pgina omillar o'zaro ta'siri bilan asoslanadi: irsiy avloddan-avlodga o'tuvchi, muhit, tarbiya, insonning shaxsiy amaliy faoliyati kabilarga bog'liq. Voyaga etmaganlarning deviant xulq-atvorini asoslovchi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Biologik omil. Bola organizmining noqulay fiziologik yoki anotomik xususiyatlari mavjud bo'lib, uni ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Bularga: -genetic, avloddan o'tuvchi xususiyatlar. Ularga qaliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishda nuqsonli bo'lganlar, asab sistemasining buzilishi kabilar kiradi. Bunday bolalar hali ona qornidayoq noto'g'ri qo'yish, onaning kasallanishi (jismoniy va psixik jarohatlar, surunkali yuqumli kasalliklar bilan og'rishi, bosh suyagi-miya psixik jarohatlari, tanosil kasalliklari); irsiy kasalliklarning ta'siri, ayniqsa, irsiylik, alkogolizm ta'sirida bo'ladilar;

-inson organizmiga ta'sir etuvchi psixologo-fiziologik og'ir tashvishlar, janjalli vaziyatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, energiyaning yangi turlari, samotik[2] allergik kasalliklar turlariga olib kelishiga sabab bo'ladi.

- fiziologik, o'z tarkibiga nutqdagi nuqsonli, tashqi qiyofadagi nuqsonlar, konstitusion-samotik nuqsonlar sababli atrofdagilar bilan munosabatda yuzaga keltiradi va shaxslararo munosabatda bolaning o'z tengdoshalri, jamoa o'rtasida chekkaga chiqish tortilishga olib keladi.

2. Psixik omil. Bola psixopotologiyasida yoki aksentuasiyasida[3] (haddan tashqari zo'riqish) xarakterning alohida xususiyati bilan ifodalanadi. Bu xulqiy og'ishganlik bola asab ruhiy kasalliklar, psixopatiya, nevrosteniya bilan xastalanganligi orqali vujudga keladi.

Aksentukrlashgan xarakter xususiyatiga ega bo'lgan bolalar turli psixologik ta'sirlarga o'ta sezgir, psixik me'yorning eng chetki turi bo'lib, tibbiy- ijtimoiy

---

[2] Samotik (yunon tilidan S ota-tana) tana bilan bog'liq, organizmdagi psixika qarama-qarshi bo'lgan holat.
[3] Xarakter aksehtuasiyasi – xarakterning alohida xususiyatlarining o'ta kuchli ifodalanishi.

reabilitasiyaga muxtoj va tarbiya xarakteridagi chora-tadbirlarnin tadbirlarning ko'rilishi talab etadigan bolalardir.

*Ijtimoiy-pedagogik omillar.* Oila maktab ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'ladi. Bu omil bolani ijtimoiylashuvidan og'ishganlikka bolalik davridayoq maktabda o'zlashtirmovchilik tufayli maktab bilan aloqaning uzilishi (pedagogik bo'sh qo'yish)olib keladi. O'smirda maktabga ongli ravishda qiziqishning shakilanmasligi matuviga sabab bo'ladi. Bunday bolalar maktabga yomon tayyorlangan, uy vazifalariga negativ munosabatda bo'luvchi maktab baholariga befarq bo'ladigan o'quv dezadantasiyasiga uchrovchi bo'ldilar.

- O'quv dezadantasiya-bolaning maktabga bo'lgan qiziqishini saqlashida bir yoki ikki fonni o'zlashtirishida qiyinchilikka duch kelgan hollatidir.
- Maktab dezadantasiya- bolaning yosh hususiyatida ta'lim olishga qiyinchiliklar bilan bir qatorda, hulqiy buzilishlar holatlari o'qtituvchilar sinflari bilan janjali vaziyatlar ko'rinishi birinchi o'ringa chiqadi. Dars qoldirish odatlari paydo bo'ladi.
- Ijtimoiy dezadantasiya- bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi maktab jamoasining talablariga javob berishdan qochish holatlari turli, asosial jamoalariga kirib ketish, spirtli ichimliklarga giyohvan moddalarga qiziqishining ortishi bilan namayon bo'ladi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishidagi og'igan omillari yomon oilalar sabab bo'ladi.SHunday oilaviy o'zaro munosabatlar usullar mavjudki, ular voyaga etmaganlarning asosisiyal hulq-atvorlarining shakilanishiga olib boradi.

*1 Tarbiyaviy va oilaning ichki munosabatlarining diogramonik usuli.* Bu usul o'zida bir tomondan, bola istaklariga ko'ra bo'lsa ikkinchi tomondan bolani inqirozli janjalli vaziyatlarga yoki oila ikki hil ahloqiy qarash mavjudligi oila uchun boshqa jamiyat uchun bo'lgan boshqacha tarbiyaviy holatlar.

*2 Barqaror bo'lmagan janjalli usul.* Noto'lig' oilalarga tasrbiyaviy ta'sir etuvchi,er-hotin ajralish, ota-ona va uzoq muddat alohida yashashlari sababli yozaga keladi.

*3 Munosabatlarning asosial usuli.* Yomon tashkil etilgan oilalarda,doimiy-spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlikka berilish, ahloqsizlik ota-onaning jinoyatchilik hulq atvor "oilaviy qahri qatiqlik "va zo'ravonlik kabi yozaga keladi.

Qahri munosabatlar (haqorat ho'rlash)deb bolaga unga g'amho'rlik qiluvchi, qarmog'iga olgan odamlar tomonidan zarar etkazilishining ko'pgina harakterlariga aytiladi. Bu holatlarga bolaga jismoniy zarar etkaziluvchi jismoniy emosional (hissiy)jinsiy qiynoqlar bilan azoblash ko'p takrorlanuvchi noo'rin jazolar kiradi. Qahrli munosabatlarga bolalar mehribonlik uylarida kasalhona va boshqa muasasalarida duch kelishlari mumkin SHunday holatlaridagi bolalar havsizlik hissisni sezmaydilar. Ularning meyoriy rivojlanishida bu hisiyotni ahamyati katta.Bu esa bolaga uni o'zi haqida men yomonman hech kimga kerakmasman, sevimli kemasman deb o'ylashlariga sabab bo'ladi. Qahrli munosabatlarning har qanday turi bola sog'lig'iga zarar ko'rsatadi. Uning hayoti va ijtimoiy moslashuvchanlik havf tug'diradi.

4 *Ijtimoiy-iqtisodiy omillar* Ijtimoiy tengsizlikka sabab bo'ladi. Jamiyatning boy va kambag'alar, jamiyat uchun eng ahamiyatli aholining kambag'allashuvi, ishsizlik kai qatlamlarga ajratadi. Ijtimoiy qabul qilingan halol ish haqini (qonuniy) olish usullarining cheklanishi; inflyasiya va ijtimoiy tartibsizlikka olib keladi.

5 *Axloqiy –ma'naviy omilar.* Hozirgi davrning jamiyatda bir tomondan ma'naviy-axloqiy darajaning pasayishi bo'lsa, qadriyatli, birinchi navbatda axloqiy xulqning buzilishi, boshqa tomondan, jamiyatning neytral munosabatlarida deviant xulq-atvor yuzaga kelishiga olib keladi.

*O'smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga asosiy yondashuvlar.* Turli deviant xulq-atvorning uzluksiz ravishda o'sish jamiyat oldiga ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan xulqli o'smirlar va yoshlar bilan olib boriladigan ishlarnign shakl va usullarini, texnologiyalarini topish vazifasini qo'ygan. Shu sababli deviant va delikvent xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashning ikki asosiy texnologiyalari profilaktik va reabilitasion ishlar, fan va amaliyotda keng tarqalgan.

Profilaktika (oldini olish) - o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy xulqiy og'ishganlikning turli ko'rinishlariga asosiy asbab bo'luvchi sharoitlardan ogohlantirish, bartaraf qilish yoki neytralashag yo'naltirilgan davlat, jamiyatning – ijtimoiy, tibbiy va tashkiliy-tarbiyaviy chora tadbirlarning yig'indisidir.

o’smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan bir necha yondashuvlari mavjud.

*Axborotli yondashuv.* Bu yondashuv ijtimoiy me’yordan o’smirdagi xulqiy og’ishganlik kelib chiqishoda voyaga etmaganlar (bu ijtimoiy me’yorlarni) bilmasliklari tufayli uni o’z asosiy yo’nalishi sifatida voyaga yetmaganlarga bu me’yorlarga rioya qilish o’z xuquq burchlari haqida axborot berishdan iborat. Davlat va jamiyat qo’ygan talablarni bajarishda bolalalrning yosh ko’rsatkichiga mos qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar haqida ma’lumot berishni ko’zda tutadi. Bu ishni amalgam oshirishda ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televidenie) dan kino, teatr, badiiy adabiyot va boshqa san’at asarlaridan foydalanish mumkin.

*Ijtimoiy-profilaktik yondashuv.* Bunda asosiy maqsad-negativ holatlarning sabablari va sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, neytrallashdan iborat. Voyaga yetmaganlar tomonidan giyohvandlik moddalarini iste’mol qilinishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari haqida ma’lumotga ega emaslar. Ular giyohvandlik-shaxsiy ish deb biladilar, faqat giyohvandliik modalarini tarqatish jinoyat deb hisoblaydilar. o’smir giyohvandlik va kuchli ta’sir etuvchi psixotron moddalar to’g’risidagi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan bu modalarni iste’mol qiluvchilar ham javobgarlikka tortiladilar. Bizning jamiyatimizda o’smirlar o’rtasidagi alkogolizm-ichkilikbozlik profilaktikasi muammosi ham muhim o’rin tutadi. O’smirlar ichkilikbozlik va alkogolizmning og’ir ijtimoiy va psixonevrologik oqibatlari haqida ham bilmaydilar.

*Tibbiy-biologik yondashuv* bu yondashuvning mohiyati ijtimoiy me’yorlardan og’ishganlikning oldiniolishda tibbiy profilaktik xarakterdagi turli psixik nosog’lom shaxslarga munosabat-biologik darajada bo’lishi lozim. Agar insonda psixik (ruhiy) rivojlanishi, sog’lig’ida turli nuqsonlar bo’lsa u o’z ruhiy xususiyatlariga asosan ma’naviy axloqiy me’yorlarni buzishi mumkin. Bu holatda insonga uni o’zgartirib bo’lmaydigandek qaraladi. O’smirlarda bunday psixik nosog’lomlikni o’z vaqtida aniqlash juda muhimdir. Chunki ular umuman hayolga kelmaydigan harakatlarni sodir etishlari mumkin. O’smir psixiatr mutaxassisliklar ko’rigidan o’tkazilib, shunga muvofiq tibbiy davolash choralari ko’rilishi lozim.

*Ijtimoiy-pedagogik yondashuv* bu yondashuv mohiyati o'smirnin deviantlik xulq-atvoridagi shaxsiy xususiyatlarini qayta tiklash va to'g'rilashdan iborat. Ayniqsa, uning axloqiy irodaviy shaxsiy xuususiyatlarini qayta tarbiyalash shart. O'smirlarda uning irodaviy xususiyatlari, xulq-atvorida quyidagilarni shakllantirish lozim:

- o'z so'zi va ishini egasi bo'lish;
- o'smirning jinoyatga boshlovchi, jamiyatga zarar yetkazish kabi illatlarga bo'lgan qiziqish va harakatlarini to'xtatish;
- hozirgi davrda eng muhim bo'lgan masalalar builan band qilish;
- xuquqqa qarshi bo'lmagan, puxta o'ylab chiqilgan maqsadlarni qo'yish.

Erki bo'lmagan inson flyugerga o'xshaydi, shamolqaysi tarafga essa, o'sha tomonga o'giriladi. Bundau insondan ijtimoiy me'yorlarni buzish, jinoyatchilikni kutish mumkin. Uni yengillik bilan aldash, o'zgalarnigng so'zlariga quloq solishi, o'zga axloqiy qarash va baholarga og'dirish oson. O'zga axloqiy qarashlarga ergashib, u xuquqbuzarlik va aaxloqsizlik xulq-atvoriga ega bo'ladi. bunday insonlarni tarbiyalashda jamiyat tomonidan unga erkinlik va xuquqlarini berib, uni o'z-o'zini boshqara olishga o'rgatish zarur.

*Sanksiyalarni qo'llash.* Bu yondashuv mohiyati xuquqbuzarlik qilgan insonni jinoiy qonunlar asosida jazolash turadi. Biroq, jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu samara bermaydigan holat bo'lib, jamiyat tomonidan qattiq sanksiya bo'lib hisoblanadi, xolos. Shu sababli ijtimoiy

Og'ishganlik sabablarini aniqlash va bartaraf etishda bu faqatgina yordamchi vosita bo'lib hisoblanadi.

**O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:**

1. Nima uchun ijtimoiy pedagogikada me'yor va me'yordan og'ishganlik tushunchalari ko'rib chiqiladi?
2. "Ijtimoiy og'ish" tushunchasining mohiyati nima?
3. "Deviant xulq", "delikvent xulq", "criminal xulq" tushunchalar mohiyati I aytib bering?
4. Deviant xulqli o'smirning asosiy sabablarini ayting va asoslab bering?

5. Deviant xulqni ogohlantirish va oldini olishda axborotli, ijtimoiy-profilaktik, tibbiy-biologik va ijtimoiy- pedagogik yondashuvlarning xususiyatlari nimalardan iborat?

| 7 - Mavzu | IJTIMOIY PEDAGOGIK TASHXIS. OILA TASHXISI. TASHXIS MARKAZLARINING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI |
|---|---|

## 7.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 30 - 60 nafar. |
|---|---|
| O'quv mashg'lotining shakli | Vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Ijtimoiy pedagogik tashxis.<br>2.Oila tashxisi, oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.<br>3.Tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati. |
| **O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Ijtimoiy pedagogik tashxis.Oila tashxisi, oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.Tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganish. | |
| **Pedagogik vazivalar** | **O'quv faoliyatinig natijalari** |
| - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini, ko'rsatish;<br>- Pedagogik diagnostika fanining ijtimoiy pedagogik tashxisini tushuntirish;<br>-Tashxis markazlari ning bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati aytib berish | - Pedagogik diagnostika fanining tutgan o'rnini aniqlash;<br><br>- Pedagogik diagnostika fanining ijtimoiy pedagogik tashxisini tushunadilar<br><br>- Pedagogik diagnostika fanining tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati aytib beradilar va tanishadilar; |
| **O'qitish uslubi va texnikasi** | Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster, |
| **O'qitish vositalari** | Proyektor, tarqatma materiallar |
| **O'qitish shakli** | Individual, frontal, juftlikda ishlash |
| **O'qitish sharoitlari** | Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya |

## 7.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

| **Bosqichlar Vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| **1-bosqich. Kirish (5 min.)** | 1.1. Mavzu maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.<br>1.2. Rejani ekranga chiqaradi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. E'tibor beradilar. |
| **2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)** | 2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi.<br>2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi. | 2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. |
| **3-bosqich. Asosiy (55 min.)** | 3.1. Quyidagi savol bilan murojat qiladi Oila tash xisi, oila bilan olib bori ladigan ijtimoiy pedago gik faoliyat xaqida gapiring?<br>3.2. Pedagogik diagnos tika fanining ijtimoiy pedagogik tashxisini tushunadilar(7.1 ilova)<br>3.3.Pedagogik diagnostika fanining tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati aytib beradilar va tanishadilar(7.2 ilova) | 3.1. Gapiradilar.<br>3.2. Yozib oladilar.<br>3.3.Tanishadilar va o'rganadilar |
| **4-bosqich. Yakuniy (10 min.)** | 4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi. | 4.1. Eshitadilar.<br>4.2. Topshriqlarni yozib oladilar. |

7.1.


Ijtimoiy mikro muhit
Ekolo gik
Sotsiolo gik
Ijtimoiy - psixolog ik

I


Oila tashxisi
Ijtimoiy
Pedagogik
Faoliyat

# 7-MAVZU: IJTIMOIY PEDAGOGIK TASHXIS. OILA TASHXISI. TASHXIS MARKAZLARINING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

**Reja:**

1. Ijtimoiy pedagogik tashxis.
2. Oila tashxisi, oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.
3. Tashxis markazlarining bola tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati**.**

